**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

# “FALSAFA VA IJTIMOIY HAYOT”
# USLUBIY QO‘LLANMA

**(Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun)**

**Toshkent - 2017**

Ushbu uslubiy qo‘llanma Termiz davlat universitetining Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 24.05.2017 yilgi 19-sonli Ijtimoiy-iqtisodiy fakul’teti Kengashining 27.05.2017 yildagi 10/3-sonli hamda Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2017 yildagi 11 sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Falsafa fanining namunaviy va ishchi o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlandi.

**Tuzuvchi:**

**Termiz davlat universiteti**

**Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi:** **Qoraboyev N.M.**

**Taqrizchilar:**

**Termiz davlat universiteti**

**“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri,**

**falsafa fanlari nomzodi:** **Mustafoyev U.O‘.**

**Falsafa fanlari doktori, professor:** **Samadov Sh.B.**

Mazkur uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim tizimi barcha yo‘nalishlari 1.00. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki o‘quv adabiyotlari turkumiga kiradi, davlat standartlari va namunaviy o‘quv dasturi mazmuniga mos. Kitobda falsafa fani, uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli keng qamrovli yondashuvlar asosida yoritib berilgan.

Uslubiy qo‘llanma barcha oliy o‘quv yurtlarida falsafa bilan shug‘ullanuvchi bakalavr, magistr, mustaqil tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va umuman, falsafa muammolari bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Uslubiy qo‘llanma Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashida muhokama etildi va nashrga tavsiya etildi.

# KIRISH

Bugungi kunda falsafani o‘qitishda o‘qituvchi duch keladigan eng xarakterli shart-sharoit shundaki, falsafa shakllanganidan buyon to hozirgacha uning asliy predmetida ham, uni o‘rganuvchilarning tabiatida ham, uni o‘rganishning tashkillashish shakllarida ham tinimsiz va katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Eng oxirgi o‘zgarish yurtimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi munosabati bilan dogmalashgan va biryoqlama markscha-lenincha falsafaning inkor etilishi va uning o‘rniga o‘z milliy falsafamizni shakllantirish masalasining ko‘ndalang bo‘lishi munosabati bilan amalga oshmoqda. Vaholanki, bunga qadar ham falsafaning predmetida umumjahon miqyosida ikki juda yirik o‘zgarish sodir bo‘lgan.

Falsafadan ma’ruza o‘qish, avvalgi mavzularda aytilganidek, bir vaqtning o‘zida bir qancha vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ulardan eng muhimlarini bilish ma’ruzani o‘qishda qanday uslublarni (metodlarni) qo‘llash maqsadga muvofiqligini belgilab olishga yordam beradi. Vazifalarning eng birinchisi, albatta, talaba uchun noma’lum bo‘lgan va talaba mustaqil erishishi qiyin yoki mumkin bo‘lmagan muayyan axborotni (informatsiyani), muhim falsafiy g‘oya va qarashlarni unga bevosita yetkazib berishdir. Ma’ruzaning ikkinchi vazifasi, mazkur mavzu materialini talaba ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirishiga emas, balki ongli qabullashiga erishishdir. Buning uchun falsafa o‘qituvchisi talabada axborotni mustaqil tahlil etish, fikriy izlanishni amalga oshirish ko‘nikmalarini tarbiyalashi kerak. Ma’ruzaning navbatdagi, eng oliy vazifasi talabada ijodiy fikrlash qobiliyatini hosil qilish bo‘ladi. Buning uchun ustoz talabaga falsafiy qarashlar orasidagi ziddiyatlarni payqash, ularga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirish, ifodalash va iloji boricha, o‘z xulosalarini oldinga surish kabi mustaqil, ijodiy mushohada ko‘nikmalarini shakllantirishi kerak. Mazkur vazifalarni bajararkan, pedagog ma’ruzaning turli qismlarida turlicha uslublarni qo‘llaydi va dars vaqtida talaba faoliyatini ham shunga muvofiqlashtiradi. Ma’ruzaning birinchi vazifasini amalga oshirisharkan, u talabadan axborotni passiv va to‘liq qabullashi kerak bo‘lgan tinglovchi holatida

bo‘lishni talab qiladi. O‘zi esa, asosan, ahborotni talabaga iloji boricha bekam-u ko‘st yetkazish, tushuntirish, izohlash, namoyon etish kabilar bilan cheklanadi. Bu, masalan, falsafada oldinga surilgan muhim, o‘zgarmas prinsiplar, paradigmalar, shakllangan g‘oya va qarashlar, ta’riflar, muhim talqinlar, qonunlar, faktlar va darsga oid muhim davlat hujjatlari kabilar bo‘lishi mumkin.

Ma’ruzaning boshidan oxirigacha faqat shu metodni qo‘llashning o‘qituvchi uchun ham, talaba uchun ham qulay jixatlari ko‘p. Uning talaba uchun qulayligi shundaki, 1) talaba o‘zini hech zo‘riqtirmasdan tayyor axborotni qabul qilib oladi (yoki, umuman, qabul qilmaydi); 2) talaba o‘qituvchidan, o‘zi qabul qilishi mumkin bo‘lgan boshqa axborot manbalardan farqli o‘laroq, ancha sifatli, ya’ni o‘qituvchining sinovdan o‘tgan tajriba, tahlillariga asoslangan, eng dolzarb, muhim jihatlari ajratib olingan, umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan materialni qabul qiladi; 3) mavzu bo‘yicha material tanqis hollarda bu ayniqsa qulay...

Ushbu metodning o‘qituvchi uchun qulayligi shundaki, u 1) dars rejasi buzilmaydi; 2) mavzu uchun mo‘ljallangan materialni dars vaqti ichida to‘liq yetkazib beriladi; 3) intizom risoladagidek, shovqin-suronsiz, ehtiros, bahslarsiz o‘tadi; 4) o‘z bilimini keng namoyon qilishi bilan zavqlana oladi (agar o‘qituvchining bilimi yuqori bo‘lsa, albatta); 5) bir bora yozib qo‘ygan ma’ruzasini, qayta-qayta ishlamasdan o‘qiyverishi mumkin... Lekin darsni faqat shu metod asosida o‘qish, bir tomondan, talabani mutafakkirga emas, faqat taqlidchiga aylantirsa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining o‘zini ham nazariy va metodik nuqtai nazardan dogmalashib qolishiga olib keladi. Shunga ko‘ra, falsafa o‘qituvchisi talabaga falsafiy materialni qanday bo‘lsa shundayligicha, ya’ni nofaol qabul qilishi shart bo‘lgan tinglovchi sifatidagina emas, balki mavzuni tahliliy qabullashi mumkin va kerak bo‘lgan subyekt sifatida ham yondashishi, ya’ni ma’ruzaning ikkinchi vazifasini ham amalga oshirishi zarur.

Shu munosabat bilan falsafiy ma’ruzaning ikkinchi muhim maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladigan uslubni ham yoritishga o‘tamiz. Bunda, avvalo, o‘z ma’ruzasining birinchi vazifasini qoniqarli amalga oshira olgan o‘qituvchigina ikkinchi vazifani ham amalga oshira olishini ta’kidlab o‘tish joiz.

Zero, ma’ruza materialining tahlili talabaga aniq va to‘liq yetkazilgan axborot asosida bo‘lishi zarur. Aks holda, tahlil mantiqiy tupikka, boshi berk ko‘chaga kirib qolishi va talabadan chin mutafakkirni emas, safsatabozni (sofistni) keltirib chiqarishi mumkin. Ma’ruzaning ikkinchi vazifasini bajarish uchun o‘qituvchi talaba faolligini rivojlantiruvchi metodlarni ishga solishni ham bilishi kerak. Ushbu metodlar aktiv va interaktiv metodlar nomini olgan. Bunday metodlar hozirgi davrda juda ko‘p. Bular qatoriga, masalan, ma’ruzalarni muammoli o‘tish, suqrotcha bahs tarzida o‘qish, rolli uyinlar tashkil etish, konkret vaziyatlar tahlili tarzida o‘qish, o‘yin proyektlari asosida tashkillash va h.k.

## “Falsafa: uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli” mavzusi bo‘yicha ma’ruza matni

### Reja:

1. **Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafaning predmeti va asosiy mazmuni.**
2. **Dunyoqarashning mohiyati. Dunyoqarashning tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.**
3. **Falsafa va fanning mutanosibligi va farqi.**

«Falsafa» so‘zini (yunonchadan phileo (sevaman) va sophia (donishmandlik), ya’ni «donishmandlikni sevish» birinchi marta miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Pifagor ishlatgan. U faqat xudolargina donishmanddirlar, odamlar esa donishmandlikka intilishi mumkin, ya’ni donishmandlikka qanday yaqinlashish haqida mulohaza yuritilishlari mumkin deb hisoblagandi. Odamda mulohaza qilish qobiliyatining rivojlanishi haqiqatni falsafiy izlash yo‘llari va vositalarini belgilab berar edi.

Olamning birlamchi asosi va birlamchi sabablarini, kosmos tuzilishining o‘ziga xosligini bilishga urinish ma’lum ma’noda falsafaning obro‘sini «fanlar shohi» darajasiga ko‘targan edi. Falsafaning, shuningdek, metafizika (yunoncha meta ta phusika ya’ni fizikadan keyingi) deb atalishi ham bor. «Meta» old qo‘shimchasi falsafaning tabiatni o‘rganuvchi qolgan fanlar «ustiga qurilgan»ligini bildirar edi: qadimgi yunonlar tabiatni, ya’ni insonni o‘rab turgan tabiiylikni o‘rganishni «fizika» deb nomlar edilar.

Falsafa mifologik tasavvurlar bag‘rida yuzaga kelgan. Miflar (yunoncha mythos – so‘z, doston, rivoyat), ya’ni rivoyatlar qadimgi odamlarning birlamchi dastlabki ma’naviy madaniyat shakllari edi. Rivoyatlar barcha xalqlar ham bir bo‘lib, tabiat va jamiyatni tushunishning asosiy vositalari bo‘lib hisoblanar edi.

Kosmologik (kosmosning, ya’ni olamning kelib chiqishi haqidagi) va kosmogonik (kosmosning tuzilishiga tegishli) rivoyatlar olam va odamning kelib chiqishi haqidagi; inson yashayotgan dunyoning qanday tuzilganligi haqidagi; ezgulik va yomonlik nimaligi, odamlarning g‘am-u tashvishlari qayerdan kelib chiqadi, o‘lim nima, o‘limdan so‘ng nima bo‘ladi va h.k. odamdagi falsafiy tasavvurlarning proobrazlari edi.

Qadimiy odamlar uchun rivoyatlar o‘ylab chiqarilgan va bilish usuligina bo‘lib qolmay, ular hayotning shakli ham edi. Rivoyatlar yaratish qadimgi odamning har kungi hayotidagi odatlari, diniy rituallari, marosimlari bilan chambarchas bog‘langan. Ovchilik va dehqonchilik rituallari, bag‘ishlov va qurbonlik qilish marosimlari va mifologik turmush tarziga xos bo‘lgan boshqa magiya harakatlari hozirgi zamon kishisi uchun mutlaqo ratsional bo‘lib tuyulmaydi. Biroq tarixiy ravishda mulohaza yuritilsa va tabiat insoniylashadigan, insonning o‘zi esa o‘zini tabiatdan ayrim ko‘rmaydigan mifologik ongning o‘ziga xosligini nazarga olinsa (tabiatning barcha hodisalari, madaniyat buyumlari, odamlar va xudolar yagona bo‘lib birlashib ketgan edilar), u holda, mifologik ishonishlar va rituallar o‘z holicha izchillik kasb etadi. Uning ustiga, bu ritual va marosimlar odamlarning psixik kuchlarini yo‘llab, ularning ruhiy va emotsional kayfiyatlarini umumiyligini ta’minlab inson hayoti uchun foydali edilar.

O‘zimizni qadimgi ovchilar o‘rniga qo‘yib ko‘raylik. Ovga yoki baliq tutishga otlanar ekanmiz, biz barcha mumkin bo‘lgan variantlarni ishlab chiqqan va aniq reja tuzib olgan bo‘lar edik. Bizdan farqli ravishda, qadimgi odamlar ritual raqsga tushgan va xudo yo‘lida qurbonlik qilgan bo‘lar edilar. Ular o‘zlaricha haq edilar, chunki ovda ko‘p narsa oldindan ko‘rib bo‘lmagan tasodifga bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ham voqealarni avvaldan aytib bo‘lmaydigan hollarda irim-sirimlar o‘z o‘rnida topiladi. Aytish mumkinki, rivoyatlar hozirda ham yo‘q bo‘lib ketmagan, balki ongimizning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Yigit o‘z sevgilisining rasmini o‘pib qo‘yar ekan, bu yerda ratsionallik bor deb aytib bo‘lardimi? Bizningcha yo‘q: bu harakatda qadimiy magiya elementi mavjud, hozirgi zamon odami uning ustidan hatto kulishi mumkin, biroq kerakli

ruhiy holatga keltirishi uchun uning o‘zi bunday harakatni qilishi mumkin. Mifologik tasavvurlarning ko‘plab elementlari falsafiy va ilmiy bilim elementlari bilan qorishgan holda ommaviy ong tarkibida ko‘plab uchrab turadi.

Ratsional fikrlash qurilishining alohida elementlari qadimgi yunon epik adabiyotida ham payqaladi. Ma’lumki, yunon rivoyat, afsonalaridagi qahramonlar xudolar bilan ham, odamlar bilan ham qarashlik aloqalari bilan bog‘langan edilar. Rivoyat yoki afsona qahramoni yarim xudo, yarim odam tusida bo‘lar edi. Masalan, Gomer poemalarining qahramonlari (eramizdan avvalgi VII-VI asrlar) odamlarga xos aqllilikka ega, odatdagi odamlarga xos kechinma va emotsiyalarni namoyon qiladi. Shu bilan birga, Gerakl singari qahramonlarda odamlarga xos bo‘lmagan, g‘ayritabiiy kuch mavjud. Qadimgi yunon eposida qahramonda ajoyib insoniy aqllilik va xudolarga xos magiya aks ettirilgan bo‘ladi.

Qadimgi yunon falsafasining dastlabki matnlari olamning afsonaviy tasavvurlarini aqllilik asosida ifodalashga intilgan birinchi tajribalardir. Ularda rivoyat elementlari olamning kelib chiqishi va tuzilishini tushuntirishda foydalaniladi. Masalan, qadimgi faylasuflarda suv, olov va boshqa tabiiy stixiyalarni olamning birlamchi asoslari sifatida qabul qilinishi aynan mifologiya traditsiyalarini o‘zlashtirishdir. Shunga qaramasdan, qadimgi Yevropa falsafasi doimo aqlga asoslangan mulohazalar va baholashlarga intilish, olamni tushuntirishga doir bilimlarni isbotlash va asoslashda ratsional sxemalarni topishga harakat qilish bilan xarakterlanar edi. Bunday ratsional yo‘nalganlik insonning ijtimoiy va madaniy hayotidagi amaliy uslublar, yerni ishlash usullari, texnika taraqqiyoti va insonlar orasidagi muloqot usullarining mukammallashish sharoitlari bilan bog‘liq edi. Masalan, qadimgi yunon shaharlarida hayotning ko‘plab ijtimoiy-siyosiy muammolari omma orasida muhokama qilinar va bunday muhokamalar davomida odamlar o‘zlarining isbotlash va asoslash qobiliyatlarini charxlab olar edilar.

Ilgaridan falsafa taraqqiyotida uning ilmiy bilish bilan aloqadorligi muhim rol o‘ynagan. Qadimgi yunon falsafasi taraqqiyot cho‘qqisiga chiqqan davrlarda-Platon va Aristotel asarlari falsafa aynan falsafa bo‘lganini, o‘z qiyofasiga ega

bo‘lganligini ko‘rsatadigan dalillardir. Platon geometrik bilimlarga parallel ravishda falsafiy mulohazalarga ham sistemaviylik, qat’iylik, isbotlanganlik xossalarini kiritish. «Donishmandlikni sevishni» haqiqatga, ezgulikka intilish tarzida aniqlashtirdi. Aristotel falsafa predmetiga olam kelib chiqishining birlamchi asoslari va birlamchi sabablariga eng umumiylik, abadiylik va o‘zgarmasligi xossalarni berdi. Bunda falsafiy bilimning ratsionalligi natural falsafiy masalalarini, ya’ni tabiatni bilish masalalarini ochishda o‘zining to‘la aksini topdi. Aristotel’cha natural falsafiy bilish metodlari insonning narsalarni hissiy qabullashi va mantiqiy tahlil qobiliyatlariga asoslangan. Aynan shunday metodlar hodisalarning sabablarini bilishga va tabiat qonunlarini ifodalashga imkon beradi. Aristotel barcha bilimni nazariy fanlarga (masalan, geometriya, arifmetika, astronomiya, fizika, biologiya) va amaliy (masalan, etika, psixologiya ritorika, poetika) va ijodiy fanlar (masalan, hunarmandchilik va san’at) ga bo‘ladi. Shunday qilib, rivojlangan qadimgi yunon falsafasi, mifologiya elementlarini saqlagan holda, tabiat va insonni isbotlash va tajriba elementlari bilan birgalikda ratsional bilishga yo‘naltirdi.

O‘rta asrlarda falsafa nima, degan savol ma’lum darajada diniy mavzularga bog‘liq bo‘lib qoldi. Xristian dini, masalan, IV-V asrlardan boshlanib ma’jusiylik madaniyati va qadimgi yunonlarning mifologiyasidan voz kechishga harakat qilishga intiladi. O‘rta asr faylasuflarining diqqat markazida endi xudo va diniy masalalar turadi, qolgan masalalar , har holda, ularning hosilasi sifatida ilgari suriladi. Bunda, Bibliyadagi syujetlar boshqa eng qadimgi mifologiyalar va xalq dostonlarini ikkinchi planga surib qo‘yadi. Qadimgi yunonlarning natural falsafiy ratsionalizmi o‘rta asr ruhoniylari va faylasuflar asarlarida xudoning borligini asoslash bilan almashtiriladi. Xudo tabiat va inson dunyolarning yaratuvchisi va me’mori deb qaraladi. Falsafa predmetining diniy, g‘ayritabiiy xarakteri uning qolgan barcha xususiyatlarining, chunonchi, tabiat va insonni ratsional bilish masalalarini ham o‘ziga bo‘ysundirib qo‘yadi. Diniylik falsafiy bilimning ajralmas sifati hisoblanadi, falsafaning butun o‘rta asr davomidagi evolyutsiyasida barcha falsafiy maktablar va yo‘nalishlarda biror darajada mavjud bo‘ladi.

Falsafiy bilimda antik dunyoda yuzaga kelgan ratsionallik yangi davrga kelib qayta tiklana boshladi. Bunda, ayniqsa, shubhaning ratsionallik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Xudoning borligi, bilimning ilohiy prinsiplarining eng umumiyligi va qudratliligiga shubha qilina boshlanadi. Shubha haqiqatni aniqlash usuli sifatida falsafada hamma vaqt ham hukm surib kelgan edi, biroq antik davrda u olam borlig‘ining mukammalligi va garmoniyali ekanligiga ishonish, o‘rta asrlarda esa- xudoning donoligi va rahmdilligiga ishonish bilan tushuntirilar edi. Faqat yangi davrga kelibgina, olamning, boshqa odamlarning, o‘z-o‘zining bilishiga shubha qilgan inson falsafa e’tiborining markazida bo‘lib qoladi. Falsafa endi diniy aqidalar ta’siridan ozod bo‘lgan avtonom bilim sohasi mavqeini egalladi.

Dining hukmronligidan ozod bo‘lishi Yevropa yangi davr jamiyati va madaniyatida radikal o‘zgarishlarga olib keldi: dunyoviylik, fuqarolik hayot tarzi cherkovdan ajraldi, bozor iqtisodining rivojlanishi va buning natijasida xususiy tashabbus ortdi, kapital to‘planishi ro‘y berdi, sanoat o‘sdi, ilmiy bilim (ayniqsa, tabiatshunoslik) ning roli ortdi, ta’lim va maorifga ehtiyoj kuchaydi. Yangi davr olimining shaxsi ilmiy ratsionallik va tajribaga asoslangan tabiatshunoslikka asoslangan biluvchi subyekt obrazi tarzida namoyon bo‘ladigan bo‘ldi. Bunda, ko‘pincha, olim faylasuflar falsafiy mulohazalarga tabiatshunoslik va matematika elementlarini kirita boshladi, faylasuflik faoliyatlarini davlat siyosiy va jamoatchilik faoliyatlari bilan qo‘shib olib bora boshladilar. Bilish metodlari va uslublarini o‘rganish falsafada uzoq davom etgan qiziqishlarini avvaldan belgilab berdi. Falsafiy bilish nazariyasi yetakchi fan bo‘lib qoladi. Olamni va odamni ratsional tushunish amaliy hayotda va san’atda ko‘proq o‘z ifodasini topa boshladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan, aniqroq aytadigan bo‘lsak, I.Kantdan boshlab, amaliy falsafaning vazifasi faqat aqlga emas, balki inson hayotining erki va qadriyatlari bilan ham bog‘lanadi. Falsafiy mulohazalar doirasiga insonning tarix jamiyat va madaniyatdagi o‘rni va roli masalalari kiritiladi. Falsafa nima bilan shug‘ullanishi kerak degan masalaga turli-tuman qarashlar, ayniqsa, XIX-XX asrlarda alohida namoyon bo‘ladi. Falsafaning o‘rni endi ayrim faylasuflar uni

ko‘tarib qo‘ygan inson bilimlari piramidasining cho‘qqisida qolishi mumkin emas edi, u endi «shon-sharaf» larga ko‘milgan universal «fanlarning fani» bo‘la olmas edi. Biroq avvalgidek, bu qarashlarning o‘ziga xosligi ham ularning odamning olam bilan, boshqa odamlar bilan, o‘z-o‘zi bilan munosabatini xarakterlovchi jihatlari bilan belgilanar edi.

Dunyoqarash insonning borliqqa sistemali-nazariy, ma’naviy munosabatidir. Dunyoqarash konkret ilmiy bilimlardan farqli ravishda, umumlashgan qarashlar sistemasi, borliq va unga insonning munosabati to‘g‘risidagi fundamental tasavvurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Inson qarashlari, bilimlarini nazariylashtiruvchi falsafaga qaraganda dunyoqarash ancha keng tashkiliy tuzilmadir. U o‘ziga nafaqat ratsional jihatlarni, balki shu bilan birga kishilarning hayotiy nuqtai nazarlarini, e’tiqodlarini, orzu-intilishlarini, axloqiy tamoyillarini, butun ma’naviy-madaniy olamini qamrab oladi. Bunda dunyoqarash tarkibida kishilarning individual va ijtimoiy tajribalari umumlashmalari, o‘zaro muloqot va amaliyot jarayonida paydo bo‘ladigan tasavvurlari muhim o‘rin egallashini ta’kidlash lozim.

Faoliyatning mohiyatini ochishda, dunyoqarashning asosini tashkil qiluvchi subyekt va obyekt dialektikasiga e’tibor berish kerak. Mana shu dialektikani hisobga olgan holda ba’zi faylasuflar tomonidan faoliyatga quyidagicha ta’rif berilgan “faoliyat – subyektning obyektga ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda moddiy-amaliy va ijodiy o‘zgartiruvchilik ta’siri bo‘lib, bu ta’sir natijasida tashqi obyekt ham, unga ta’sir qiluvchi subyekt ham o‘zgaradi”[1].

Inson dunyoqarashi nazariy faoliyat natijasida shakllanib boradi. Ammo uning moddiy asosi ham bor bo‘lib, bu amaliyot amaliy munosabatlardir. Demak, dunyoqarash insonning tashqi dunyoni amaliy jixatdan o‘zlashtirishdagi umumlashgan shakldagi faoliyatining nazariy in’ikosi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Agar, amaliyot dunyoqarashning moddiy asosi bo‘lsa, unda dunyoqarash inson amaliy faoliyatining nazariy asosidir. Dunyoqarash amaliy faoliyatga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, uni ma’lum bir yo‘nalishga soladi.

[1] Коршунов А.М. , Мантатов В.В. Диалектика социального познания.- М.: Наука, 1998. Б.3

Dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining asosiy shakllaridan yana biri – bilish jarayonidir. Borliqning umumiy qonunlarini ochish jarayonida, bilishning ham umumiy qonunlarini kashf etib boruvchi falsafa dunyoqarashning mantig‘i, harakatlantiruvchi kuchi, uni ilmiy bilimlar bilan boyituvchi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Aslida, har qanday dunyoqarash, falsafa metodologik mazmunga ham ega. Ayni paytda falsafa metodlari dunyoqarashlik ahamiyatini kasb etadi. Misol uchun, falsafaning eng muhim metodlaridan biri dialektika nazariya sifatida ham namoyon bo‘ladi. Dunyoqarash va dialektik metod birligi falsafaning barcha tamoyillarida o‘z ifodasini topgan. Bu birlik o‘z navbatida falsafa ta’sirida inson faoliyatining barcha shakllarida namoyon bo‘ladi. Bundan falsafaning dunyoqarashlik va metodologik mazmuni bavosita o‘z tamoyillari, qonunlari, kategoriyalari, metodlari orqali hamda bevosita, fanlar, ijtimoiy ong shakllari, shuningdek, amaliy va bilish faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Demak, ilmiy dunyoqarash va faoliyatning falsafa bilan fanning uzviy birligini taqozo qiladi.

Falsafa uzluksiz va ba’zida juda keskin diskussiyalar bilan rivojlandi. Har bir faylasuf o‘zidan oldin o‘tgan yoki zamondosh hamkasbi bilan bahslashadi, bunda ularning qarashlarini qabul qilishi ham, ularni rad etishi ham mumkin edi. O‘zining uzoq davom etgan taraqqiyoti jarayonida falsafa o‘z muammolarini asoslash meyorlari (kriteriylari)ni ishlab chiqdi. Qanday qilib hayotning realligini isbot qilib bo‘ladi, tashqi olamning mavjudligini qanday isbotlash mumkin. Bilish qanday amalga oshadi? «Tashqi olam mavjud», «mening ongim bor» yoki «men mavjudman» degan da’volar to‘la ravishda haqiqatdek tuyuladi. Biroq ularni asoslash kutilmagan qiyinchiliklarga duchor qiladi. Masalan, olimlar tabiatni biladi, hodisalarni kuzatadi, sabablarini aniqlaydi va qonunlarni ifodalab beradi. Biroq tabiat nima va olamning sababiy va qonunlarga muvofiq tuzilganligi to‘g‘risidagi ilmiy farazlar qay darajada to‘g‘ri degan masalalar fandan tashqarida qoladi. Fan dalillarni va qat’iy asoslashlarni talab qiladi. Biroq fakt (dalil) degani nima? Qonun nima? Sabab nima? Tushuntirish deb nimaga aytiladi? Qat’iy isbotlash degani-chi? Yoki biz nima uchun isbotlashimiz kerak? degan savollarga

javob berishning ma’nosi yo‘qmi? Olimlarning uyushmalari bunday savollarga bilimning qandaydir boshqa sohalarida javob berib bo‘lingan deb o‘ylashga ham tayyor. Holbuki, bunga o‘xshash barcha savollar aniq ma’noga ega va barcha insoniy bilimlar asosida yotadi. Aynan ana shular falsafaning qiziqish sohasi hisoblanadi.

Odamni ular hayotining ko‘plab masalalari qiynab keladi. Masalan, u hayotning ma’nosi nima, nimani ezgulik deb hisoblash kerak, erkinlik, adolat, yaxshilik va sh.k. larni bilishga harakat qiladi. Odatda bu savollarga javob berishda an’anaviy ravishda dindan qutular edi. Ruhoniylar bu inson hayotining «abadiy savollar» ga javob berish uchun, albatta, o‘z javoblarini aqidaviy ravishda tuzar edilar va ularga biror e’tiroz yoki shubha bildirib bo‘lmas edi. Shu bilan bir vaqtda, ruhoniylar javoblaridagi bunday aqidaviylik ko‘plab odamlarni, hatto dindor kishilarni ham qoniqtirmadi va hozir ham qoniqtirmay keladi. Ko‘pincha, kishilarning o‘z hayotlari va borliqlari haqidagi fikrlashlari ularda shubhalanishni keltirib chiqaradi. Shubhalanayotgan odamning holati shunday bo‘ladiki, go‘yo uning oyog‘i bo‘shashib, yerni sezmay qo‘ygandek tayanadigan narsasi qolmagandek his qiladi. Siz o‘zingizni hozirgina qattiq aylanishdan to‘xtagan karuseldan tushgansiz deb faraz eting. Atrofingizda hamma narsa aylanayotgandek his qilasiz, oyoqlaringizda turishga qiynalasiz, hozir yiqilib tushadigandek tuyuladi. Siz o‘zingizni o‘nglab, normal holga kirishingiz va narsalar odatdagidek ko‘rinishi uchun bir muncha vaqt o‘tishi kerak bo‘ladi. Hayot va borliq masalalari bo‘yicha shubhalar va bahslar-odamning tabiiy va normal holatidir. Ular mulohaza yurituvchi va bir-birlari bilan muloqotda bo‘lgan odamlar hayotida ro‘y beradi. Bunday savollarga javob berish kasbiy bo‘ladimi yoki qiziquvchan bo‘ladimi-falsafaning vazifasidir. Falsafiy masalalar insonning o‘z hayoti, uni o‘rab turgan dunyo, dunyoga munosabati, boshqalarga munosabati, o‘z-o‘ziga munosabatini bilishga qiziqish usuli, shaklidir.

Ilmiy masalalarni muhokama qilish tekshirilgan dalillar va nazariyalarning mustahkam fundamentiga asoslanadi, diniy masalalar obro‘ va aqidalarga asoslanib, masalan, muqaddas kitoblar aqidalariga asoslangan bir qiymatli javobini

topadi. Falsafiy masalalar esa tajribaviy-ilmiy tekshirishlar yoki diniy aqidalarga asoslanmaydi. Shunga qaramay, falsafiy tushunchalar va da'volarni asoslash mustaqil ravishda bilish va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday asoslash inson jamiyati tarixi va madaniyati tarixiga, shuningdek, alohida olingan inson hayoti bilan chambarchas bog‘langan. Fanlarda muammoning qo‘yilishi va yechilishi bilish obyektivligi kriteriysiga mos keladi. Bunday kriteriyga rioya qilgan holda olimlar o‘zlari o‘rganayotgan soha haqida maksimal obyektiv bilim olishga intiladilar. Ilmiy bilimning obyektivligi-bu bilimga inson shaxsi, omili tomonidan hech qanday buzilishlari kiritilmasligi shartini qo‘yadi. Xolbuki, shaxsiy omillarining o‘zi voqelikning bir qismi sifatida o‘rganilayotgan hodisalarning omillari bo‘lgan joyida o‘z-o‘zicha hisobga olinadi, albatta. Falsafiy bilim insonning tabiat dunyosi va boshqa insonlar bilan munosabatlaridagi rolini tahlil qilishni nazarda tutadi. Shuning uchun falsafiy qarashda barcha masalalar shaxsiy omillarni hisobga olishni ko‘zda tutadi.

Falsafada va dinda (aqoidda) masalalarning qo‘yilishi va yechilishi taqqoslanar ekan, diniy masalalarni ruhoniy ilohiy asosni ustun qo‘ygan holda qaraydi, faylasuf esa insonning roliga ustunlik beradi. Ruhoniy hamma vaqt birinchi planga xudoni qo‘yadi, so‘ngra inson va uning shaxsi masalalari qo‘yiladi, faylasuf esa inson va uning olamda tutgan o‘rni masalalarini birinchi galda ilgari suradi. Dinning mif bilan umumiy jihati shundaki, din mifsiz va mifologik marosim, udumlar va shu kabilarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Zero, aynan mif dinning boshlang‘ich manbaini tashkil etadi. Balki shuning uchun ham taniqli nemis faylsufi Gegel o‘z ishlarida mifologiyani dindan ajratmagan, “mifologiya” va “din” atamalarini sinonim sifatida ishlatavergan. Lekin Gegel dinni hajm jihatdan mifologiyadan kengroq deb hisoblagan.[1]

Bizningcha, Gegelning dinga mifologiyadan kengroq yondoshuvi uning tor panlogizm pozitsiyasidan, ya'ni intellektualistik nuqtai nazar doirasida turib qarashidan kelib chiqqan. Vaholanki, masalaga intuitivistik nuqtai nazardan qaralsa, garchi din mifologiyasiz mavjud bo‘la olmasa hamki, mifologiya dinsiz mavjud

[1] Чанышев А.Н. Начало философии. М. “МГУ”.1982. 34- б.

bo‘laveradi. Shu ma’noda mifologiya dindan keng va teran. Chunki, mifologiyadan farqli o‘laroq din shakllangan (shakl, sxema qobig‘iga kirgan) dunyoqarashdir, jonli mifologiyani esa hech qanday shakl bilan chegaralab bo‘lmaydi .

Zero, shakllangan dunyoqarash sifatida din muayyan bilimlar to‘plamini va amaliy faoliyatga oid qonun-qoidalarni o‘z ichiga olgan yopiq tizimni tashkil etadi. Mif esa ayrim shaxslar boshidan kechiradigan mo‘jizaviy hodisalar oqibatida hamisha yangi mazmun bilan boyib boradi. Vaholanki, hech bir shaxs boshqa shaxsga o‘xshamaganiday , haqiqat ham hech qachon har bir shaxs uchun aynan bir xil bo‘lmaydi va hatto bir shaxs uchun ham takrorlanmaydi. Shu ma’noda mifologik dunyoqarash dindan farqli o‘laroq hamisha ochiq dunyoqarash bo‘lib kelgan. Falsafiy fikrlashning o‘ziga xosligi shundaki, unday fikrlash ratsionallik, ichki muvofiqlik, ziddiyatsizlik, isbotlanish talabalariga bo‘ysunadi. Avvaldan aytish mumkinki, bu xarakteristikalar kishilarning emotsional, irodaviy, baholash-qadriyatli argumentlari bilan mos keladi. Falsafiy bilish, ruhoniylarning spekulyativ da’volaridan farqli o‘laroq, ularning borlig‘i, hayoti, madaniyati, tarixi, jamiyat to‘g‘risidagi oxirgi va abadiy harakatlariga shubhani kuchaytiradi.

Miflarda, keyin shakllangan dunyoqarash shakllaridan farqli o‘laroq borliq, tabiatdagi barcha narsalar, turli jonzotlar va odamlar o‘zaro uzviy birlikda, bog‘lanishda qaraladi. Buni biz milliy tarixiy qadriyatimiz bo‘lgan “Avesto” misolida yaqqol tasavvur eta olamiz. Zero, «Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta’sir o‘tkazib kelganiga yana bir bor e’tiborimizni jalb qiladi.”[1]Shunisi diqqatga sazovorki, miflarda, keyin shakllangan dinlardan ham farqli o‘laroq hatto xudolar ham odamlardan olisda emas, balki hamisha yonma-yon va birgalikdagi evrilishda qabullanadi. Bu mifologiyaviy dunyoqarashning yana bir asosiy o‘ziga xosligini – unda tabiiylik bilan g‘ayritabiiylik, obyektivlik bilan subyektivlikning

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият,2008.Б.32.

uzviylikda qabullanishini ko‘rsatadi. Hatto, Misr ehromlaridan birida “Xudolar abadiyatga dohil bo‘lgan odamlardir, odamlar esa o‘luvchi xudolardir” deyilgan yozuv borligi buning yorqin dalillaridan biridir. Mifologiya davri kosmogoniyasi teogonik xarakterga ega bo‘lgani ham shunda edi. Orfey, Gomer, Gesiod teogoniyalari bunga misol bo‘la oladi. Sharqda ham ayni shunday teogonik ta’limotlar borligini ko‘rish mumkin.

“Din” atamasi qadimgi somit tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilidagi “e’tiqod”, “ishonch” atamalariga mos keladi. Har bir inson nimagadir ishonib, e’tiqod qilib yashaydi. Har qanday e’tiqod esa o‘z obyektiga ega. E’tiqod obyekti Xudo, uning payg‘ambarlari, farishtalar va umuman o‘tkinchi bo‘lmagan (abadiy) dunyoning mavjudligi kabilar tashkil etishi mumkin yoki, aksincha, ilmiy materialistik dunyoqarash, torroq ma’noda esa biron ilmiy paradigma (muayyan falsafiy yo ilmiy bosh gipotetik g‘oya, masalan, materiyaning ongga nisbatan birlamchiligi g‘oyasi yoki biron maxsus fanning aksiomalari) tashkil etishi ham mumkin. Shu ma’noda e’tiqod diniy va ilmiy, tor va keng bo‘lishi mumkin. Shuningdek, har bir inson o‘z e’tiqodida erkin, chunki bu ko‘ngilning tanlovidir. Lekin diniy e’tiqodni ilmiy e’tiqoddan farqlantiruvchi bir necha asosiy o‘ziga xosligi bor. Fanning isbot talab qilmaydigan, ishonchli deb qabullanadigan g‘oyalarini, masalan, aksiomalarni tor ma’nodagi xususiy-ilmiy e’tiqod obyekti sifatida olib qarasak, bu farq, ayniqsa, yaxshi ko‘rinadi. Zero, fan aksiomalari muayyan davrga kelib yaroqsiz bo‘lib qolishi, boshqa aksiomalar bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, noklassik geometriya klassik (evklidcha) geometriya aksiomalari amal qilish sohasining juda torligini, real fazoning geometriyasi boshqacha ekanini ko‘rsatdi va buning natijasida noklassik (noevklid) geometriyasi shakllandi. Bundan farqli o‘laroq diniy e’tiqod obyektlari mutlaq hisoblanadi.

Diniy e’tiqodning bu o‘ziga xosligi ko‘p vaqtlar mobaynida ko‘pchilikka fanning dindan ustunligini ko‘rsatadigan dalil bo‘lib keldi. Shundan kelib chiqib, fan isbotlanadigan bilimga, din esa ko‘r-ko‘rona ishonchga tayanadi degan qarashlar shakllandi. Vaholanki, taniqli nemis faylasufi I.Kant o‘z davridayoq bunday

qarashlar asosli emasligini, diniy e’tiqodni nazariy ravishda isbotlab bo‘lmagani kabi, uni nazariy ravishda inkor etib ham bo‘lmasligini to‘g‘ri ko‘rsatgan edi.[1]

Diniy e’tiqodning yana bir o‘ziga xosligi uning his-tuyg‘ular bilan uzviyligida. Argentinalik faylasuf X. Livraga aniq ifodalaganiday, “Inson Xudoni qalbi bilan tanigani uchun ham hayvondan farq qiladi va agar shu yakka-yu yagona farq ham o‘chib ketsa, u holda bizning qiyofamizda hayvoniylik belgilari ortib ketadi. Vaholanki, shundoq ham biz insondan ko‘ra gumanoidga ko‘proq o‘xshab bormoqdamiz.”[2]

Diniy e’tiqod cheklangan dunyoviy hayot obyektiga emas, balki abadiyat dunyosiga , eng buyuk Ezgulik va g‘ayri oddiy Qudrat timsoli bo‘lgan Xudoga yo‘nalgan ekani insonga shunday buyuk qadriyatlarni belgilaydiki, kishi dunyoda hamma narsasini, xatto o‘z hayotini yo‘qotsa hamki, unga bo‘lgan o‘z e’tiqodini yo‘qotmaslikka harakat qiladi. Zero, inson hayotning har qanday qiyin sharoitida ham shu yuksak qadriyatga suyanib jon saqlashi yoki jon berishi mumkinligiga ishonadi. Shuning uchun garchi hayotning muayyan davrida diniy e’tiqodning susayishi yoki hatto yo‘qolishi kuzatilsa-da, uni chegaralab turuvchi sharoit barham topishi bilan inson ma’naviyatida din yana katta o‘rin egallay boshlaydi. Shu ma’noda diniy e’tiqod hech yo‘qolmaydigan, har qanday xolda ham suyanish mumkin bo‘lgan yagona ma’naviy qadriyatdir. Shuning uchun xalqimiz daxriylik davri mafkurasining shafqatsiz ta’qiblari davrida ham “o‘z muqaddas diniga sodiq qoldi. Shuning o‘ziyoq dinni inson, xalq va jamiyat hayotidan aslo o‘chirib bo‘lmasligidan yana bir bor dalolat beradi.” [3]

Diniy e’tiqod hamisha insoniyat axloqining poydevorini tashkil etib kelgan. Dinsiz ham axloqli bo‘lish mumkin, deb o‘ylash kaltabinlik ekanini hozirgi davr ma’naviy inqirozi ko‘rsatib turibdi. SHo‘rolar davri ateistik mafkurasi dinni chetlab o‘tib, axloq kodeksini ishlab chiqishga harakat qildi. Bunda diniy e’tiqod o‘rniga ilmiy e’tiqod qo‘yildi. Bilim ham aslida buyuk ma’naviy qadriyat. Lekin u, ayniqsa,

[1] Кант И. Критика чистого разума. М.1996.Т.3.Б.95.
[2] Хорхе А.Ливрага. Избранные фрагменты.// Великие мыслители новых времен. М., 1991. Б.62.
[3] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият,2008.Б.94.

cheklangan chiziqli tafakkurga tayangan bilim diniy e'tiqodning o'rnini bosa olmasligi endilikda aniq ko'rinib turibdi.

Umuman esa, barcha ilmiy-falsafiy adabiyotlarda dunyoqarashning barcha shakllari kelib chiqishidan oldin o'zida ham bilimni, ham adabiy-badiiy-majoziy san'at asarini bir vaqtda (birgalikda) o'zida jo etgan yaxlit simvollik (majoziy) dunyoqarash - mifologiya mavjud bo'lgani va u "falsafaning muqaddimasi" ("predfilosofiya") deb atalgani qayd etilgan. Bizga yetib kelgan eng qadimiy simvolik-mifologik dunyoqarashga oid asarlarda dunyoqarashga oid eng chuqur masalalar - inson hayotining ma'no va mohiyati, inson dunyoviy hayotining, abadiyatga erishuv muammosi kabi ko'plab chuqur falsafiy muammolar qo'yilgani ma'lum va endilikda ular o'sha vaqtlarda juda teran yechim ham topgani ma'lum bo'lmoqda. Ushbu asarlar mazmunida din ham, ratsional-nazariy falsafiy mazmun ham, xususiy ilmlar ham, san'at ham ajralmas birlikda namoyon bo'lgani endilikda e'tirof etilmoqda.

Dunyoqarashning qaysi tipida yangilik kashf etilmasin, agar u chin haqiqat bo'lsa, shu yaxlit ilm xazinasiga tushadi va aksincha, kishi qaysi dunyoqarash vakili bo'lmasin, u oliy bilimga tinimsiz intilsa, shu manbadan o'z hissasini qabul qilib olishi va uni o'z madaniyati tilida va darajasida tafsir va talqin etishi mumkin. Sharq mamlakatlarini kezib ilm o'rgangan Pifagor, Platon kabi yunon faylasuflari yoki Yunon, Hind, Zardushtiylik ta'limotlarini o'rganishga o'z hayotlarini bag'ishlagan Farobiy, Ibn Sino, Beruniy va b. kabi zotlar, shuningdek, so'fizm vakillaridan, masalan, "Platonning o'g'li" nomini olgan Ibn Arabiy, o'zining "Farhod va Shirin" dostonining bosh qahramoni Farhodni Suqrotdan ta'lim olish uchun Yunonistonga "yo'llagan" Alisher Navoiy va b. shular qatoriga kiradi.

Falsafaning asosiy muammolari ichida eng umumiylarini ajratish mumkin: borliq muammosi, hayotning ma'nosi va hayot qadriyatlari muammosi, insonning mohiyatiga tegishli alohida muammolar to'plami tarzida inson muammosi: axloq muammosi (yashash normalari va odamlarning hulqi-atvoriga tegishli muammolar to'plami); olamni badiiy o'zlashtirish muammolari; to'g'ri fikrlash muammosi;

ijtimoiy hayotning mohiyati muammosi; tarixni tushunish va tushuntirish muammosi va b.

Falsafiy bilimning alohida sohalari (falsafiy fanlar)ga: ontologiya (yunoncha ontos-borliq, mavjudlik va logos-ta'limot, ya'ni borliq haqidagi ta'limot yoki borliq nazariyasi,) gnoseologiya (yunoncha gnosis-bilim, bilish va logos-nazariya, ya'ni bilish nazariyasi), aksiologiya (yunoncha axios-qadrli va logos-nazariya, ya'ni qadriyatlar nazariyasi), falsafiy antropologiya (yunoncha anthopos-odam va logos-ta'limot ya'ni inson mohiyati haqidagi ta'limot), etika (yunoncha ethos-odat, ya'ni axloq haqidagi ta'limot); estetika (insonning voqelikka badiiy munosabati haqidagi ta'limot), mantiq (to‘g‘ri fikrlash shakllari va usullari to‘g‘risidagi ta'limot), ijtimoiy falsafa va tarix falsafasi kiradi.

Falsafa ham, har bir fan kabi, o‘zining tarixi masalalariga murojaat qiladi. Falsafa tarixi-bu eng qadimgi davrdan to bizning davrlarimizga qadar falsafiy bilish taraqqiyoti tarixidir. Falsafa tarixi turli tarixiy davrlar va madaniyatlarda insonlar hayotining umumlashtirilgan tajribasini ifodalaydi. Falsafa tarixini bilmagan holda falsafani tushunish va uning muammolarini muhokama qilish mumkin emas.

Inson amaliyoti va bilishining rivojlanib borishi bilan falsafiy bilish ham bir butun tarzda rivojlanib bermoqda. Uning yangi sohalari yuzaga kelmoqda: masalan, o‘tgan asr o‘rtalarida tabiatshunoslikning falsafiy masalalari, yaqin o‘tmishda esa ilmiy bilish tabiatining umumiy masalalari bilan shug‘ullanadigan fan falsafasi yuzaga keldi; yaqindan beri inson va olam o‘zaro ta'sirining umumtexnologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi texnika falsafasi, shuningdek, iqtisod falsafasi, huquq falsafasi to‘g‘risida gapirilmoqda va sh.k.

Jamiyatda falsafani tan olish anchagina ichki va tashqi qarshiliklarga duch kelgan, chunki hayotning mavjud bo‘lgan qotib qolgan qoliplaridan voz kechishni taqozo qiladi. Uning ustiga faylasuflar ko‘pincha yerda yashayotganliklarini unutgan holda doim ideal dunyoni qidirib, o‘z obro‘larini yo‘qotib qo‘yar ekanlar, ular Yerdagi olamning tuzilishi mukammallikdan uzoq bo‘lsa-da, har holda u kundalik xayotga ma'lum barqarorlik berishni esdan chiqarar edilar.

Hayot bozori hech vaqt «donishmandlik» tovari bilan to‘ldirib tashlanmagan edi. Faylasuflarni hamma vaqt kundalik hayotning moddiy xarakteridan uzoq turuvchi haqiqatlar qiziqtirar edi. Shuning uchun donishmandlik bozorda kamyob tovar deb hisoblanar edi. Biroq odamlar faylasuflarsiz yashashlari mumkin deyish ancha xato bo‘lar edi. Turmush, hayot faqat narsalar va nondan iborat emas-ku! Albatta, kim uchundir hayot qiyinchiliklari yeyiladigan «non» ni topishdan iborat bo‘lishi mumkin, u faqat kiyim, ovqatlanish, uy-joy topish tashvishi bilan yashashi mumkin. Biroq bu kishining hayoti, shuningdek, har birimizning hayotimiz ham, faqat uning moddiylik tarafi bilan tamom bo‘lmaydi-ku. Ertami yoki kechmi inson hayotini narsalardan tashqari turadigan, vaqtdan yuqori bo‘lgan realliklar va hayot qadriyatlari to‘g‘risida mulohaza qilishga majbur bo‘ladi, chunki ular o‘z-o‘zidan mulohaza qilishga majbur qiladi. Shu sababli falsafa odamlarga kerak. U odamlarni o‘z hayoti maqsadlariga otlantiradi va qayta otlantiradi, o‘zlari ustidan o‘ylashga majbur qiladi. Hatto faylasuflar haqiqatni izlashda yanglishganlarida ham falsafaga ehtiyoj o‘lgani yo‘q. Hamon barcha odamlar aqlli mavjudot ekanliklariga da’vo qilar ekanlar, falsafa ular hayotining ko‘zgusiga aylanadi, uning yordamida hayotiy oreintirlar izlab topiladi.

Shunday ham bo‘ldiki, odamlar o‘zlarining dunyodagi mavqeilaridan qoniqmaydilar. Shu tufayli bir odamlarning manfaatlari boshqalarniki bilan mos kelmay qoldi va ijtimoiy konflikt yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ba’zan falsafadan ma’lum foyda, «undirish» va bu bilan jamoaga o‘z fikrini o‘tkazish va shu yo‘l bilan o‘z qarshiliklarining haqligini tasdiqlash uchun yoki bo‘lmasa, falsafani odamlanishiga urinishlar ham bo‘lib turadi. Shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi konflikt qadim zamonlardan beri bo‘lgan va sivilizatsiya tarixida turlicha namoyon bo‘lgan. Hozirgacha saqlanib qolgan bunday hayotiy hodisaning har ikki tomoni ham qisman haq va qisman haq emas. Ularning falsafiy pozitsiyalari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Birinchi tomondan, ijtimoiy kuchlarning ustuvorligini saqlovchi falsafa odamlarni murosaga keltirish va qovushtirishga intilmog‘i lozim. Boshqa tomondan esa, falsafa jamiyatda inson hulqining individual qobiliyatini asoslashga yordam berish kerak.

Odamlar individualligi jamiyat kishilarini jipslashtirishga to‘siqlik qiladigan xususiyatdir. Ayniqsa, individualizm asosida insonlar aqliga shubha va ikkilanishlar yoyish yoki ro‘yobga chiqmaydigan umidlar bog‘lash yotgan bo‘lsa bu juda hatarli. Shuning uchun bu mutaxassis faylasuflar qarashlarini ifodalaydimi yoki faylasufning shaxsiy mulohazasi tarzida ifodalangan bo‘ladimi, falsafadan voz kechish mumkin emas. Odamlar ijtimoiy hamkorlik va individualizm muqobilligining bir tomonlamaligini qay darajada yengishlariga qarab insoniyat sivilizatsiyasining taqdiri belgilanadi. Albatta falsafa qandaydir bir butun yagona dunyoqarash emas. Falsafa juda har hil bo‘ladi: yomon va yaxshi; erishilganini saqlashga yordam beradigan yoki vayron qiluvchi; odamlarni chalg‘ituvchi; aqlga yoki his-tuyg‘uga asoslangan; odamlarni muloqot birligini yuzaga keltiruvchi va ularning turmush xohishlari va qadriyatlari bilan kelisha olmaydigan va sh.k. Falsafani o‘rganmay turib, to‘g‘risini tanlash mumkin emas.

Odamlar hayoti va madaniyati tarixiga murojaat qilish shuni ko‘rsatadiki. Ijtimoiy tuzumning yoshligi va keksaligida, uning paydo bo‘lish yillari va so‘nish davrida falsafaga ehtiyoj kuchayar ekan. Aynan ana shu davrlarda inson va jamiyat o‘z hayotiy yo‘lini tanlar va o‘zi tutgan yo‘lini yakunini tahlil qilar ekan. Masalan, qadimgi yunon sivilizatsiyasining madaniy taraqqiyoti ma’lum darajada falsafa tufaylidir, aynan falsafaning yo‘llashi tufayli aql ideallari, demokratiya va ma’naviylik singari o‘sha davr jamiyati hayotiy asoslarini shakllantirishda yutuqlarga erishilgan. Biroq bunday bo‘ladi, deb o‘ylash odamlar uchun yengiltaklik va faylasuflar uchun maqtanchoqlik bo‘lgan bo‘lar edi. Huddi keksa inson o‘zining yoshlik yillaridagi romantik ideallaridan voz kechgani singari, jamiyatning ideal rejalariga ham avvaldan kutilmagan omillar aralashadi, tang vaziyatlar yuzaga keladi va avvalgi ideallar va qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Masalan, jamiyat taraqqiyotining sokin, barqaror davrlarida akademik fan, san’at va falsafa gullaydigan bo‘lsa, ijtimoiy tangliklar va notinchlik davrlarida hayotning barqarorligi buziladi. Madaniyat inqirozga yuz tutib, tanazzulga duch kelganda unda navbatdagi «geniy» lar va «payg‘ambar» lar qalloblar va muttahamlarni keltirib chiqarar ekan. Bunda yangi hayot ideallari va

strategiyalarini tanlash tavakkal bo‘lar, avvaldan aytib bo‘lmas natijalarga olib kelishi, noxush oqibatlar va xato harakatlarga olib kelishi mumkin ekan. Biroq noto‘g‘ri qarorlar qabul qilmasligi uchun har qanday farazlar kuzatishlar, eksperimentlar va hisobotlar bilan tekshirib tuzilishi, taassurot va tasavvurlar mantiqiy asosga ega bo‘lishi, iroda va erkin aql tarozisida ishlatish kerak.

Bugungi qiyin kunlarda ijtimoiy o‘zgartirishlarga doir ko‘p ishlar yoshlar yelkasiga tushmoqda. Yoshlar hayotga ko‘proq talabchan bo‘ladilar, uning qiyinchiliklariga sezgir bo‘ladilar. Shu ma’noda ularning ba’zilari norozi, boshqalarda shubha, uchinchilarda charchoq va depressiya, to‘rtinchilarida esa befarqlik va dangasalik seziladi. Ba’zan aynan yoshlar turli yo‘llarga oson kirib ketmoqdalar, ularni turli ma’naviy sezgirlikni yo‘qotish yo‘lida ish ko‘rayotganlar o‘zlariga og‘dirib olmoqdalar. Narkotik moddalarga berilishi yoki turli oqim va yo‘llarga oson ergashib ketish hollari uchramoqda aniq belgilab olmaganlik tufayli turli oqimlar va harakatlarni boshqarayotganlar «domiga» ilinib qolayotganlari ham bor. O‘z hayotining aniq yo‘lini belgilab olishning oson maslahatlari ham yo‘q. O‘z-o‘zini anglashdan voz kechishi va quruq hayollar, giyoxvand kayfiyatlarga berilishi real hayotdan ko‘z yumish usuli degan gapdir. Albatta, hayotdagi barcha masalalarga falsafa javob beradi, deyish ham juda ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bugungi kunda falsafa ham kasbiy yoki kundalik hayotiy donishmandlik ma’nosida qiyin tanlash holatida turibdi: o‘tirib olib kelajak hayot haqida shirin hayollar og‘ushiga berilish kerakmi yoki qancha og‘ir bo‘lmasin o‘tmishni qayta idrok etib, hozirgi hayot va istiqbolini aniqlash lozimmi? Hozirgi zamon jamiyatida falsafaning roli faqat uning tanqidiylik vazifasi bilan cheklanib qolmaydi. Ko‘pincha, falsafa o‘ziga muloqot va dialog vazifasini oladi. Muloqot strategiyasi eng ilg‘or va ezgu maqsadlarda bo‘lmasin kuch ishlatib targ‘ibot qilish yo‘llarini tan olmaydi. Klassik falsafa jamiyatni isloh qilishning inqilobi edi. Shuning uchun ham bugungi kunda falsafaning o‘ziga yoki uning kommunikativ imkoniyatlariga ishonchda shubhalanishlar bor ekanligi ajablanarli emas. Uning ustiga, hozirgi zamon falsafasi ba’zida ommaviy ahborot va kommunikatsiya vositalarining qudratli to‘lqini bosimida qolib ketadi. Fikrlashning «savollar va

javoblar» tarzidagi primitiv nushasi hozirgi matbuot, radio, telekommunikatsiya davrida ko‘plab kishilarni mavjud yashash sharoitlariga oson moslashish kayfiyatlarini belgilab qo‘yishi mumkin. Bunday kishilar targ‘ibot va reklama vositalari ta’sirida shu darajada o‘z yo‘nalishlarini yo‘qotib qo‘yadilarki, ularni falsafiy tafakkur yo‘liga jalb qilish lozim bo‘ladi.

Hozirgi kunda inson jamiyati haqiqat o‘z erkinligi hissini yo‘qotish chegarasidan asta-sekin chiqib kelmoqda. Falsafa bu qadriyatlarning o‘tkinchi emasligini qayd qilib turadi, bu qadriyatlarsiz hayot o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Shaxsning hayotiy rejalari ham, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini belgilash ham aqlning shunchalik quruq o‘yini emas. Inson o‘z xayotini ikki marta yashay olmaydi : bir marta asl maqsadlarsiz shunchaki «qoralama» tarzida va ikkinchi marta asl ideal va maqsadlarga muvofiq o‘tay olmaydi. Maqsadlar va ideallar hayotimizni takrorlanmas va jozibali qiladi. Ular hayotni saqlab turadi. Chunki odamlar o‘z hayotlarini ana shu maqsadlarga moslab, muvofiqlashtirib yashaydilar. Donishmandlik o‘zini ham, boshqalarni ham bostirishda emas, balki o‘z-o‘ziga va atrof dunyo bilan muvofiqlikda yashashdir. Bunda falsafaga murojaat qilish ruhning rivojini ta’minlaydi, uni eski aqida va steriotiplardan tozalashga, hozirgi zamon maqsadlariga mos istiqbol yo‘llariga boshlashga hizmat qiladi.

Falsafani o‘rganayotgan har bir talaba ertami – kechmi «Men bevosita ish ko‘rayotgan fan sohasining falsafaga qanday munosabati bor?» Men shug‘ullanayotgan fan masalalarini yechishga falsafiy bilimlarning foydasi qanday? – degan savollarga duch keladi. Bizning davrimizda bilimning barcha sohalari bir – biridan juda uzoqlashib ketdi, fan esa bilimlar sohasining tobora differensiallashib borayotgan sohasiga aylandi.

Falsafa va fan ham bir – biridan xuddi fan va san’at, fan va mifologiya singari farq qiladi, degan tasavvur paydo bo‘lishi mumkin. Haqiqatan ham, falsafada ham mavhum, muayyan ma’noda, «abadiy» masalalar qo‘yilayapti va muhokama qilinayapti – ku. Bu masalalar bir butun olam haqidagi, hayotning ma’nosi, ong va bilishning tabiati, insonlarning hayoti va o‘zaro muloqoti haqidagi, burch, vijdon, yaxshilik haqidagi ahloqiy masalalar va shunga o‘xshash

masalalardir. Bu masalalar odamlarni hamma vaqt ham qiziqtirib kelgan, ular to‘g‘risidagi fikrlar esa ba’zan bir – biridan jiddiy farq qilgan. Har holda, bu masalalar turli tarixiy davrda, har bir jamiyatda va har bir madaniyatda turlicha muhokama qilinadi va ularga bir qiymatli bo‘lgan oxirgi javoblarni topish ham mumkin bo‘lmasa kerak.

Fan esa, falsafadan farqli o‘laroq, konkret muayyan masalalar bilan shug‘ullanadi, undagi savollarga yetarlicha aniq javoblar beradi. Masalan, biologiya tirik mavjudotlarni tasnif etadi va sinflarga bo‘ladi, ularning tarqalishi, hayot tarzi, hulq –atvorini o‘rganadi, turli organizmlar va ular oilalarining o‘zaro munosabatlarini, hayoti faoliyatlari mexanizmini, individual va tarixiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Fundamental tibbiyot kasalliklarni tasnif qiladi va sinflarga bo‘ladi, ularning kelib chiqish sabablari va sharoitlari (etimologiya) va rivojlanish «mexanizmlari»ni (patogenez) aniqlaydi, ularni tashxis qilish usullarini ishlab chiqadi, kasalliklarning oldini olish yo‘llari va vositalarini topadi, organizmning normal hayot faoliyatini tiklash yo‘llarini qidiradi.

Shunga qaramasdan, faqat birinchi qarashdagina falsafa va fan (fundamental va amaliy fanlar) orasida umumiylik yo‘qdek tuyuladi. Olim tomonidan har qanday konkret muammoning yechilishi uning dunyoqarash va metodologik prinsiplari bilan shartlangan, bu dunyoqarash va metodologik ko‘rsatmalar hamma vaqt bevosita falsafa ta’sirida bo‘ladi. Masalan, fizik konkret obyektning harakati to‘g‘risidagi masalani yechar ekan, u umuman harakatning tabiati haqidagi tasavvurlarga tayanadi. Shifokor tana anatomiyasini o‘rganar ekan, uning tuzilishini umumlashtiradi. Ana shu umumiy belgilarni bilish shifokorning muolaja olib borishida bemor organizmidagi xastalik va buzilishlarni aniqlashga imkon beradi. Konkret ilmiy fandagi masalaning matematik yechimini topish ko‘pincha matematikni masalalarning umumiy metodlarini qay darajada bilishiga bog‘liq. Tilshunos biror milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganar ekan, tilning tabiati, uning odamlararo muomaladagi o‘rni haqidagi umumiy tasavvurlarga asoslanadi. Tabiiy – ilmiy, ijtimoiy, gumanitar yoki texnikaviy bilimlarning turli sohalaridek faoliyat ko‘rsatayotgan har qanday kishilarning ilmiy ijodiga nazar

tashlab, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bunday misollar falsafaning nafaqat fanning asoslarida mavjud bo‘lmay, uning g‘oyalari, fikrlari va umumlashmalari ilmiy bilishning qon – qoniga organik ravishda singib ketishini ko‘rsatadi.

Fanning o‘zi nima, degan savolga javob berish uchun fanni ikki jihatdan qarash mumkin. Bir tomonidan, fan anchagina turli – tuman bilimlar va bu bilimlarni hosil qilish jarayonlari, ya’ni bilish jarayonlarining majmui deb ta’riflanadi. Ikkinchi tomondan, fan ijtimoiy institutdir, ya’ni jamiyat va madaniyat tarixiy taraqqiyotining konkret davrida shakllangan muayyan tashkilotdir. Fanni tashkil qilishning ijtimoiy muassasalari jamiyatda xilma – xildir, masalan, universitetlar, ilmiy – tadqiqot institutlari, fanlar akademiyalari, kafedralar, laboratoriyalar va h.k. Bu tashkilotlarda ishlovchi ilmiy jamoalar faqat bilimlar yaratibgina qolmay, turli shakldagi ilmiy muloqotlar (bahslar, anjumanlar, simpoziumlar)da qatnashadilar, ilmiy tadqiqotlari natijalarini chop ettiradilar (davriy nashrlar, monografiyalar, darsliklar), ma’ruzalar o‘qiydilar.

Vatanimiz o‘z mustaqilligiga erishib, markscha-lenincha ilmiy materialistik fan bo‘lib kelgan falsafaning ma’naviyatimizdagi yakka hukmronligi barham topishi munosabati bilan dunyoqarashimizda hosil bo‘lgan ekzistensial vakuumni nima bilan to‘ldirish muammosi ko‘ndalang bo‘lgan bugungi kunda aslida falsafa nima edi, u qanday qilib o‘z vaqtida diniy qadriyatlarlarning o‘rnini bosgan edi, endilikda nima sababdan u krizisga uchradi va endi uning o‘rniga qanday dunyoqarash kelishi mumkin kabi bir qator masalalar biz uchun, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etdi. Lekin, falsafani aslida nima ekanini tushunish ham dinni tushunish kabi oson emas. Zero, dunyoqarash shakli sifatida falsafa ham din kabi murakkab ma’naviy qadriyat bo‘lib, u ham o‘z mavjudligi tarixida uzoq va murakkab o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu jarayonda uning tadqiqot predmetidan tortib, strukturasi, vazifalari, metodlari, butun mazmunida juda ko‘p va tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Shuning uchun bu masalani o‘rganishni ham uning kelib chiqish tarixidan boshlash maqsadga muvofiq. Zero, taniqli rus faylasufi A.F.Losev to‘g‘ri aytganiday, “tarixsiz biz ko‘rsichqonga o‘xshab

qolamiz”[1], ya’ni zulmatda yashashga o‘rganib qolganimiz tufayli yorug‘likdagi to‘g‘ri yo‘lni ko‘ra olmaymiz.

[1] Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. М. Политиздат. 1991. 9- б.

## BILIMLARNI NAZORAT QILISH:
## “Falsafa” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Falsafa” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN) -** talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;
- **oraliq nazorat (ON) -** semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YAN) -** semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat, asosan, tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o‘tkaziladi.

**ON** o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan monitoring va ichki nazorat bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Y.N.-30 ball, J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

| **Ball** | **Baho** | **Talabalarning bilim darajasi** |
|---|---|---|
| 86-100 | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llash. Mohiyatini tushun-tirish.Bilish,aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish |
| 71-85 | Yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish.Bilish,aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo‘lish |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik |

- Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: R=V*O‘/100, bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda); O‘ - fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).
- Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo‘yicha 55 ball va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.
- Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.
- **ON** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra, nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.
- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 balldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul’tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul’tet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra, rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) nafardan kam bo‘lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Appelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakul’tet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

**Talabalar bilimini baholash tizimi:**

| **Nazorat turlari** | **Nazorat shakllari** | **Nazorat shakli bo‘-yicha belgi-langan mak-simal ball** | **Nazoratl ar soni** | **Har bir nazorat uchun belgilangan maksimal ball** | **Nazorat turlari bo‘yicha saralash bali** |
|---|---|---|---|---|---|
| Joriy baholash (JB) | 1.Talaba faolligi (mavzular bo‘yicha og‘zaki javob berish, mavzular bo‘yicha taqdimot tayyorlash, testlarni yechish) | 20 | 29 | 0,7 - 26 ta, 0,6 - 3 ta | 11 |
| | 2.Uy vazifalari-ni bajarish (top-shiriqlar, masala-lar,nazorat savollari) | 10 | 29 | 0,3 - 16 ta, 0,4 - 13 ta | 5,5 |
| | 3.Mustaqil ta’lim | 10 | 2 | 5 | 5,5 |
| **Jami** | | 40 | | - | 22 |
| Oraliq | 1.Yozma ish,test | 30 | 2 | 15 | 17 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| baholash (OB) | va boshqa shakllarda | | | | |
| **Jami** | | 30 | 2 | 15 | 17 |
| Yakuniy baholash | Yozma ish, test va boshqa shakllarda | 30 | 1 | 30 | 17 |
| **Jami** | | 30 | 1 | 30 | 17 |
| **Hammasi** | | **100** | | | **55** |

Izoh: yakka tartibda va guruh bo‘yicha topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: keys-stadi, taqdimot, esse, vaziyatli masalalar, variantlar asosida savol-javob.

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo‘lib, fan bo‘yicha yakuniy nazorat “Test” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

| № | **Ko‘rsatkichlar** | **YAN ballari** | |
|---|---|---|---|
| | | **maksimal ball** | **o‘zgarish oralig‘i** |
| 1. | Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati | 30 | 0-30 |
| 2. | Fan bo‘yicha yakuniy test nazorati | 30 | 0-30 |
| | **Jami** | **30** | **0-30** |

**Yakuniy nazoratni “Yozma ish”asosida o‘tkazish**

**MEZONI**

Talabalar fandan yakuniy nazoratni test topshiriqlari yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 30 ballgacha

baholanadi. Agar yakuniy nazorat “Yozma ish” usulida amalga oshirilsa, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variantda mavzular yuzasidan beshtadan savol bo‘lib, har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Berilgan har bir savolga talaba tomonidan fanning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri va to‘liq yoritilsa, fan doirasida mustaqil fikrga ega bo‘lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o‘zlashtirish umumiy ko‘rsatkichi 0-6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto‘g‘ri javob yozilsa yoki o‘quv adabiyotidan so‘zma-so‘z ko‘chirib yozilsa, amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-1 ball bilan baholanadi. Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

## Yakuniy nazoratni “Test topshiriqlari” asosida o‘tkazish MEZONI

Agar yakuniy nazorat “Test topshiriqlari” asosida amalga oshirilsa, sinov ko‘p variantli usulda kompyuter sinflarida o‘tkaziladi. Har bir variantda 30 tadan test topshirig‘i bo‘lib, talabaga savollarning javobini belgilash uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Har bir test topshirig‘iga talaba tomonidan berilgan javoblar 1 ball bilan baholanadi.

**Fan bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga qo‘yiladigan talablar**

- “Falsafa” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:
- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- falsafa tarixini bilishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon etishi hamda ilmiy asoslay olishi, milliy falsafani anglagan holda Vatan tuyg‘usi shakllangan bo‘lishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, insonning ma’naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo‘lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- insonning inson, jamiyat, atrof- muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va ahloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatda joriy qilishi;
- axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- bakalavriatning mos yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- dunyoning global muammolaridan xabardor bo‘lishi, fundamental globallashuvni globallashuvning boshqa jihatlaridan farqlay olishi, xususiy, milliy, mintaqaviy muammolarni o‘rganishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olishi kerak.

## Ma’ruza rejasi

1. Falsafa tushunchasining kelib chiqishi.
2. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari.
3. Dunyoqarashning mohiyati.
4. Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.
5. Falsafaning predmeti.
6. Falsafiy bilimning tuzilishi.

## Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
2. Mifologik dunyoqarashning o‘ziga xos jihatlarini ayting.
3. Dinning asosiy funksiyalari qaysilar?
4. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
5. Falsafa nimani o‘rgatadi?
6. Falsafa va fanning o‘zaro nisbati qanday?
7. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta’riflang.
8. Falsafa tarixini o‘rganish qanday maqsadni ko‘zlaydi?
9. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi meyor hisoblanadi?
10. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
11. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalga oshirilgan?
12. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?

## Referat mavzulari

1. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari.
2. Diniy e’tiqodlarning kurtaklari va tarixiy shakllari.

3. Falsafaning predmeti va uning jamiyatdagi roli.
4. Falsafa tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi.
5. Falsafaning asosiy funksiyalari.
6. Falsafa dunyoni bilish usuli sifatida.
7. Madaniyat tizimida falsafa.
8. Insoniyatning muhim muammolarini hal qilishda falsafaning roli.

## MAVZU BO‘YICHA TESTLAR

### 1-mavzu. Falsafa: uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

**1. «Falsafa» atamasini birinchi bo‘lib qaysi faylasuf o‘z asarida qo‘llagan?**

A. Aristotel

B. Pifagor

S. Suqrot

D. Platon

**2. Arxeolog olimlarning fikriga ko‘ra, tik oyoqda yuruvchi “homo sapiens” odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?**

A. 5 mln avval

B. 3,5 mln avval

S. 1,5 mln avval

D. 2 mln yil avval

**3. Dunyoqarashning qanday funksiyalari mavjud?**

A. Bilish funksiyasi

B. Qadriyatlarga munosabati

S. A, B, D javoblar to‘g‘ri

D. Xulq atvorni belgilash

**4. Dunyoqarashning tuzilishi qanday?**

A. Dunyoni sezish

B. Dunyoni idrok etish

S. Dunyoni tushunish

D. A,B,S javoblar to‘g‘ri

**5. Dunyoni sezish –bu...?**

A. Bu o‘zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish

B. Faqat obyektlarni anglash

S. Inson o‘zini tushunish

D. Aql yordamida tushunish

**6. Insonga xos xususiyatni aniqlang?**

A. Dunyoni sezish (qisman)

B. Dunyoni idrok etish

S. Dunyoni tushunish

D. Barcha javoblar noto‘g‘ri

**7. Tarixan dunyoqarashning shakllari- bu...?**

A. Mif, fan, ov

B. Mif, din, falsafa, fan

S. Din, san’at, mehnat

D. Fan, falsafa, ov

**8. Mif atamasi qanday ma’nolarni anglatadi?**

A. O‘yin, san’at

B. San’at, voqea

S. Rivoyat, afsona

D. Afsona, urush

**9. Miflar nimalar orqali ifodalanadi?**

A. Ertaklar, qo‘shiqlar

B. Rivoyat, ertaklar

S. Mehnat, ov

D. Qo‘shiq, kuy

**10. Quyidagi funksiyalarning qaysi biri din funksiyalariga qarshi emas?**

A. Dunyoni shakllantirish funksiyasi

B. Tartibga solish funksiyasi

S. Farovonlik funksiyasi

D. Kommunikatsiya funksiyasi

**11. Fetishizm –bu...?**

A. Ruxlar va tabiat kuchlariga sig‘inish

B. Odamlarga sig‘inish

S. U yoki bu predmetni odamlar hayotida ta’sir ko‘rsatish deb sig‘inish

D. Bulutlarga sig‘inish

**12. Magiya –bu...?**

A. Ruhlar va ins-jinslarga sig‘inish

B. Hayvonlarga sig‘inish

S.Odamlarga sig‘inish

D. Yomg‘irga sig‘inish

**13. Neolitik inqilobi- bu...?**

A. Inson chorvachilik va ziroatchilik bilan shug‘ullanish

B.Inson ov va terib-termachilikka o‘tish

S. San’atning vujudga kelishi

D. Dinning vujudga kelishi

**14. Monoteizm –bu...?**

A. Ko‘p xudolik

B. Yakka xudolik

S. Xudosizlik

D. Ruhlarga sig‘inish

**15. Iudaizm qachon vujudga kelgan?**

A. Mil.av XI asrda

B. Mil.av IX asrda

S. Mil. av VII asrda

D. Mil.av V asrda

**16. Dunyoqarashning qaysi shakllari e’tiqod va tuyg‘ularga tayangan?**

A. Falsafiy dunyoqarash

B. Mifologik va diniy dunyoqarash

S. Ilmiy dunyoqarash

D. Kundalik dunyoqarash

**17. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?**

A. E’tiqodga

B. Tuyg‘ularga

S. Aql va bilimlarga

D. Sezgilarga

**18. Falsafada nima birinchi o‘rinda turadi?**

A. Savol, masala

B. Obraz

S. Aniq, javob

D. Dalillar

**19. Falsafaning predmeti- bu...?**

A. Olamning yaxlit birligi

B. Borliq

S. Inson

D. Fan

**20. Kosmotsentrizmning asosiy xususiyati nimadan iborat?**

A. Odamni tadqiq etishni

B. Yerni tadqiq etishni

S. Kosmos va tabiatni anglashni

D. Hayotni anglashni

**21. 17-18-asrlarda falsafa fanlar bilan birlashib uning tadqiqotlar markazida?**

A. Bilish va ilmiy o‘rin oldi

B. Globallashuv o‘rin oldi

S. O‘zlikni anglash oldi

D. To‘g‘ri javob yo‘q

**22. Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?**

A. Qonunlar va usullarni o‘rganuvchi fan

B. Axloq haqidagi ta’limot

S. Hayot haqidagi ta’limot

D. Rivojlanish va o‘zgarishlar haqidagi ta’limot

**23. Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan- bu...?**

A. Etika

B. Dialektika

S. Mantiq

D. Tarix

**24. Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?**

A. Olamni azaldan, moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar

B. Ongni birinchi o‘ringa qo‘yuvchilar

S. Olamning markaziga madaniyatni qo‘yuvchilar

D. To‘g‘ri javob yo‘q

**25. Quyidagi qatorlardan kimlar subyektiv idealistlar hisoblanadi?**

A. Arastu, Gegel

B. Dekart, F.Bekon

S. Gegel, Berdyayev

D. Platon, Dekart

**26. Mexanistik materializm tarafdorlari kimlar?**

A. Golbax, Lametri

B. Gegel, Kant

S. Fixte, Yum

D. Berkli, Bekon

**27. Antik falsafaning asosiy savoli?**

A. Inson nima?

B. Hayot yashashga arziydimi?

S. Dunyo nimadan yaratilgan?

D. Xudoning borligini qanday asoslash mumkin?

**28. Ekzistensializm tarafdorlarining eng yirik vakillari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

A. Kant, Gegel

B. Fixte, Golbax

S. Baxtin, Sartr

D. Kamyu, Sartr

**29. Gnoseologik optimizm ta’limoti qanday qarashni ilgari suradi?**

A. Dunyoni anglash va bilish mumkin

B. Dunyoni bilib bo‘lmaydi

S. Dunyoni bilish mumkin, lekin shubha bilan qarash kerak

D. Hamma javob to‘g‘ri

**30. Agnostitsizm namoyondalarining asosiy g‘oyasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

A. Dunyoni to‘liq bilish mumkin

B. Dunyoni faqat sezgilar orqali bilish mumkin

S. Dunyoni bilib bo‘lmaydi

D. Dunyoni aqliy bilish mumkin

**31. Falsafaning qaysi funksiyasida “Haqiqat nima? Uning mezonlari qanday?”** degan savollar beriladi?.

A. Gnoseologik funksiyada

B. Dunyoqarash funksiyasida

S. Mifologik funksiyasi

D. Integrativ funksiyasi

**32. Falsafaning qaysi funksiyasi yetakchi o‘rinni egallaydi?**

A. Dunyoqarash funksiyasi

B. Gnoseologik funksiyasi

S. Ontologik funksiyasi

D. Tarbiyaviy funksiyasi

**33. 2008 yil Seul shaxrida 22 Jahon falsafasi kongressi qanday umumiy nom ostida o‘tdi?**

A. Hozirgi davrda falsafani qayta anglash

B. Tarix falsafasini o‘rganish

S. Falsafada yangi metodni yaratish

D. Falsafaning umumiy masalalari

**34. Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama komil insonni qanday atama bilan ifodalagan?**

A. Paydeyya

B. Animiya

S. Idealistlar

D. Sofistlar

**35. Xalqaro Boston kongressida fransuz mutafakkiri Pyer Obenyak qanday savolni o‘rtaga tashlagan edi?**

A. Insonning vahshiyona tabiatidan ma’rifatli tabiatga o‘tish imkoniyati qay daraja mavjud

B. Insonning kelib chiqish sabablari

S. Insoniyatning kelajakdagi muammolari

D. Olam va odamning o‘zaro munosabatlari

**36. Falsafa Pratogor, Suqrot, va Platon aytganidek falsafa -bu ... ?**

A. Ishontirish emas, to‘g‘ri fikrlash san’atidir

B. Falsafa olamni bilish

S. Umumiylikni o‘rganuvchi fan

D. Ishontirish o‘rgatuvchi fan

**37. “Umumiy nisbiylik nazariyasi” ta’limotining asoschisi kim?**

A. Eynshteyn

B. I.Nyuton

S. N.Bor

D. R.Ernest

**38. Fanning mohiyati- bu ...?**

A. Borliq to‘g‘risidagi obyektiv bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish

B. Borliq to‘g‘risidagi subyektiv bilimlar

S. Dalillarsiz aniqlash

D. Hujjatlarni yig‘ish

**39. Klassik mexanikaning qonunlarini qaysi olim ta’riflagan?**

A. I.Nyuton

B. R.Dekart

S. A.Eynshteyn

D. N.Bor

**40. XX asrning 30-40 yillarida fan-texnikaning taraqqiyoti nimaga olib keldi?**

A. Fan inqilobiga

B. Ma’naviyatning inqirozi

S. Olamning anglashning qiyinlashuviga

D. To‘g‘ri javob yo‘q

**41. Ssiyentizm quyidagi fikrlardan qaysi birini ilgari surgan?**

A. Falsafani fan darajasiga tushirish va dunyoqarash masalasini olib tashlash

B. Falsafani dunyoqarash deb bilish

S. Falsafani fan deb bilish

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

## Falsafa darslarida “suqrotcha baxs”, “insert”, “birgalikda ilm olish” metodlarining o‘rni.

Falsafa darslari qiziqarli va talabaga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha bahs”ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero, aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, talabalar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu yerda ushbu uslubga boshqa to‘xtalmaymiz.

Lekin metodikadan o‘tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko‘ra olamiz. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o‘zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafa darslarining xajmi juda qisqa bo‘lgan nofalsafa mutaxassisliklari darslarida esa uni qo‘llash uchun yetarli vaqt topib bo‘lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs qatnashchilaridan biriga ayon bo‘ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to‘qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o‘z-o‘zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

Falsafani o‘rganishga endigina kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o‘z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday ulublar qatoriga “insert” uslubi turadi.

“Insert” uslubi yordamida talabalar, asosan, falsafiy matnlar (tekstlar) yordamida o‘z tahliliy va tanqidiy tafakkurlarini rivojlantiradilar. Shu orqali falsafiy g‘oyalarni tushunishni o‘rganadilar. Bu metod bilan ishlaganda talabalarga

muayyan falsafiy matn (Masalan, biron muallifning maqolasi yoki biron faylasuf kitobidan olingan ko‘chirma) tarqatiladi. Ular tekstni o‘qib chiqib, varaq chetlariga (polyalariga) o‘z belgilarini qo‘yadilar. Belgilarni oldindan kelishib olish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu talabalar ishini tekshirish va baholashni osonlashtiradi. Belgilar quyidagicha bo‘lishi mumkin: talaba

« + » - belgisini o‘zi uchun yangi fikr qarshisiga qo‘yadi.

« - » - belgisini o‘z bilimlariga, fikrlariga zid keladigan fikr qarshisiga qo‘yadi.

«V» - belgisini o‘z fikrlariga muvofiq keladigan fikr qarshisiga qo‘yadi.

«? » - belgisini o‘zi tushunib yeta olmagan fikr qarshisiga qo‘yadi.

Talabalar tekstni o‘qib chiqib, tegishli belgilarini qo‘yib chiqqanlaridan keyin o‘qituvchi ularga quyidagi jadvalga o‘z belgilarini qo‘yib chiqishlarini tavsiya etadi.

| V | - | + | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

Shundan keyin o‘qituvchi “Insert” jadvaldagi bu axborotni tartiblashtirib chiqadi. Talabalardan kim va nimalarni tushuna olmaganlarini va kim, nimalarni tushuna olganlarini o‘rganadi. Bu unga talabalarni baholash uchun ham, kelgusi ma’ruza va seminarlarda buni hisobga olishi uchun ham kerak bo‘ladi. Darsning keyingi bosqichida o‘qituvchi talabalar qilgan ishlari asosida tekstni muxokama qilib, undagi ziddiyatli va tushunarsiz ko‘ringan yerlarini talabalarning o‘zlari ishtirokida tahlil etib, yoritib oladi, ishni xulosalaydi.

Ish muxokamasini bilimi uncha yuqori bo‘lmagan talabalardan boshlash maqsadga muvofiq. Shunda bilimi yuqoriroq talabalar muhokamada faol ishtirok etishlari, o‘z bilimlarini mustahkamlab, o‘qituvchiga ham yordam berishlari

mumkin. Chunki, ushbu muhokamada ular boshqalar tushunib yeta olmagan fikrlarni tushuntirib beradilar va talqinlari, tafakkurlari chiniqadi.

Endi **“Birgalikda ilm olish”** metodi haqida fikr yuritamiz. Bu metod faqat seminar mashg‘ulotlarida qo‘llanishi mumkin va uning xillari juda ko‘p. Ularning hammasini bu yerda keltirish uchun vaqt yetmaydi. Bu yerda, biz ulardan ba’zilarini namuna sifatida ko‘rsatamiz. Shu namunalar asosida, qolganlarini yosh o‘qituvchi o‘zi kashf qilishi yoki boshqa manbalarni o‘qib, tushunib olishi ham mumkin.

**“Yozma va og‘zaki yumaloq stol”** metodi. Bu mavzuning muhokama etiladigan masalasi bo‘yicha 3 bosqichli galma-gal fikr bildirish usulidir. Usulni qo‘llash uchun, avvalo seminar guruhini har birida 5 talabadan iborat 4 ta mayda guruhlarga ajratiladi.

Birinchi bosqichda, masalan, 1- va 2- guruh talabalari masalaning javobini yozadilar, 3- va 4- guruh talabalari esa ularning javoblarini tahlil qiladilar. Javobda 1- va 2- guruh barcha a’zolari qatnashadilar. Ya’ni guruh a’zolarining har biri “yumaloq stol” atrofida o‘rtaga tashlangan savol (masala) bo‘yicha o‘z fikrlarini yozma ravishda bildiradilar. Buning uchun javob qog‘ozga yozilishi va javob ostiga javob muallifi o‘z familiyasini yozib qo‘yishi kerak. Birinchi talaba javobni yozib bo‘lgach, qog‘oz bilan ruchkani o‘zining boshqa gruppadoshiga uzatadi va h.k. Shu tarzda qog‘oz guruhning 5 a’zosini aylanib chiqadi va tahlil uchun 3-, 4- guruxlarga uzatiladi. Z- va 4- guruh a’zolari javoblarni qiyosiy tahlil etib, tegishli baholaydilar (“ball” qo‘yadilar).

Ikkinchi bosqichda Z- va 4- guruh a’zolari mavzuning ikkinchi masalasi bo‘yicha javob yozadilar, 1- va 2- guruh talabalari esa ularning javoblarini tahlil etib, baholaydilar.

Uchinchi bosqichda “og‘zaki yumaloq stol” o‘tkaziladi. Buning uchun mavzuning uchinchi savoli 1-, 2- guruh a’zolariga beriladi. Ular og‘zaki javob beradilar, 3-, 4- guruhdagilar esa javoblarni og‘zaki muhokama qilib, og‘zaki baholaydilar. Keyin mavzuning to‘rtinchi savoli 3-, 4- guruh a’zolariga beriladi.

Ular og‘zaki javob beradilar, 1-, 2- guruhdagilar esa javoblarni og‘zaki muhokama qilib, og‘zaki baholaydilar.

**“Birgalikda ilm olish”** metodining ikkinchi shakli: **“uch bosqichli intervyu”** dir. Seminarni bu metod asosida o‘tkazish uchun seminar guruhida har biri 3 talabadan iborat (7 yo 8 ta) mayda guruhlar tuziladi. Guruhchalarning a’zolarini A, B, G deylik. Bunda A Bdan intervyu oladi, G esa savolni va javobning asosiy fikrlarini yozib oladi. Intervyu oluvchi o‘z partnyoriga o‘ylab javob berishi uchun bir necha sekund vaqt berishi va asosiy savolga javob to‘liq chiqishiga yordam beradigan qo‘shimcha savollarni ham berishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqichda, rollar almashadi. G A dan intervyu oladi, B yozib oladi.

Uchinchi bosqichda, B Gdan intervyu oladi, A esa yozadi. Demak, seminarni bunday tashkillash uchun seminar asosiy savollarni uchtadan mayda savollarga ajratish kerak bo‘ladi. Savollar soni gurux va guruhdagilar soniga bog‘liqdir.

Dars oxirida intervyu yozuvlari yig‘ib olinadi va o‘qituvchi tomonidan har bir guruhning, jumladan, har bir a’zoning ishi obyektiv baholanadi.

**“Birgalikda ilm olish”** metodining uchinchi shakli sifatida butun seminar guruhini 3 ga - “savol beruvchilar”, “javob beruvchilar” va “baholovchilar” – ajratib, har birining vazifalarini oldindan taqsimlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Seminar qiziqarli o‘yin tarzida kechishi uchun savol beruvchilarni “jurnalistlar”, javob beruvchilarni “delegatlar”, baholovchilarni “kuzatuvchilar” yoki “hakamlar” yoki “arbitrlar” guruhi deb atash ham mumkin.

Bu usulda seminar tashkil etilganda birinchi guruh a’zolariga seminarda muhokama etiladigan masalalarni yoritishga xizmat qiladigan savollar ro‘yxatini darsdan avval tayyorlab kelish topshiriladi. Ikkinchi guruh a’zolari seminarning asosiy savollari bo‘yicha javob berishga tayyorlanib keladilar. Uchinchi guruh a’zolari esa har ikki guruh ishini , ya’ni savol-javoblarni eshitib, baholashga tayyorlanib keladi. O‘qituvchi uchala guruh ishini nazorat qiladi, kerak bo‘lgan hollarda munozaraning obyektiv va adolatli bo‘lishiga oid ko‘rsatmalar berib turadi.

Bu metod kuchli guruhlarda va og‘zaki o‘tkaziladi. Guruhdagilar faolligi yaxshi bo‘lsa, keyingi seminar ham ayni shu usulda, faqat guruhlarning rollari almashtirilgan xolda o‘tkaziladi. Uchinchi marta ham shu usul rollarni almashlab o‘tkazilganidan keyin bir sikl tugaydi va keyingi seminarlarda boshqa uslublarni qo‘llashga o‘tish mumkin yoki shu yo‘sinda davom etish ham mumkin. Bu masalani guruhdagilarning reaksiyasiga qarab aniqlanadi.

## Darslarni muammoli o‘tish, insert, birgalikda ilm olish va suqrotcha baxs metodlarini qo‘llashga bo‘lgan asosiy talablar.

Falsafiy ma’ruzalarni muammoli o‘qishning pedagogik va didaktik prinsip va talablari, asosan, quyidagicha:

1. Talabaning muammo muhokamasiga nazariy va psixologik tayyorgarligini hisobga olish.
2. Ta’lim dasturi va mazmuni bilan uslub orasidagi uzviylikni yo‘qotmaslik.
3. Muammo materialining dars moduli bilan uyg‘unligi.
4. Tanlangan material talaba ehtiyojlari va qiziqishlarilariga muvofiq kelishi.
5. Tanlangan material chindan ham muammoli bo‘lishi, ya’ni yechimi aniq bo‘lmasligiga erishish.
6. Muammo muhokamasidan salbiy (negativ) xulosa va tajriba hosil bo‘lmasligiga erishish.
7. Dars uzluksiz kechishini ta’minlash, vaqtdan unumli foydalanish.
8. Muhokamada barcha talabalar ixtiyoriy qatnashishi uchun sharoit yaratish va h.k.

Falsafadan ma’ruza o‘qish va seminar o‘tkazishning metodik va didaktik talablari, asosan, shulardan iborat. Auditoriyaning falsafiy mavzularni o‘zlashtirish ko‘nikmalari ortgani sayin va ma’ruzalarning kirish va fundamental mavzulari talabalar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilganidan keyin ma’ruzalar vaqtida muammoli masalalar sonini ko‘paytirib borish va xatto darsni boshidan oxirigacha muammoli masalalar muhokamasi tarzida o‘tkazish ham mumkin. Keyingi holda dars “suqrotcha baxs” tarzida o‘tgan, deyish mumkin. Suqrotcha baxs namunalarini Platonning dialoglari misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu, albatta, hozirgi davrda falsafadan dars berish san’atida eng oliy idealdir. Bu idealga yetish esa nafaqat o‘qituvchi, balki talabaga, uning bilimga bo‘lgan o‘z ichki shaxsiy intilishiga, qiziqishiga bog‘liq. Bunda o‘qituvchi faqat tashqi turtki rolini o‘ynay oladi.

## GLOSSARIY

**MIFOLOGIYA -** (yunon. Miphos – doston, qissa, afsona va logos – ta’limot) ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o‘rganuvchi fan. Ibtidoiy jamiyat taraqqiyotida afsonalar birlamchi bo‘lib, ular nafaqat inson va tabiatning uyg‘unligiga qaratilgan, balki mifologik dunyoqarashning alohida turi bo‘lib, tabiat hodisalari va jamoa hayotini obrazli tasavvur qilishdir, ya’ni ilmiy dalillarga asoslanmagan, his-tuyg‘ularga, ijtimoiy xomhayollikka, ko‘pchilik tomonidan, ijtimoiy jarayonlarni va ushbu jarayonlarda o‘zlarining tutgan o‘rinlarini noadekvat aks ettirishga tayangandir. Yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning mifologiyalari, afsonalari mavjud. Ular xalqlarning tarixiy xotirasining ifodalanishida, ularni ijtimoiy tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Insonning hozirgi zamon ongida, madaniyatida mifologik qarashlar ham mavjud.

**FALSAFA** (filosofiya) – insonning dunyoda tutgan o‘rni va dunyoqarashining yaxlit sistemasini ifodalovchi ma’naviy faoliyatining bir shakli. Mil. 2-3 asrlarda o‘tgan yunon faylasufi Diogen Laertskiyning shohidlik berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi bo‘lib, o‘zini «filosof» deb atagan. Bu so‘z Geraklitning falsafiy ta’limotida narsalarning tabiatini tadqiq etishga nisbatan qo‘llanilgan, tadqiqotchining o‘zi esa «filosof» deb atalgan. Keyinchalik «filosof» so‘zi har taraflama, keng, tushunarli va haqqoniy fikr yuritishga intiluvchi kishiga nisbatan qo‘llanilgan. Tarixiy ma’lumotlar yunon. philosophia so‘zi arabchaga «falsafa» bo‘lib o‘tganligi, arablar bu fanni «hikmat» deb atashi, ruschaga «filosofiya» tarzida o‘tganligini tasdiqlaydi, demak, falsafa bilan filosof so‘zlari bir xil ma’noga ega.

**FAN –** dunyo haqidagi obyektiv bilimlar sistemasi: ijtimoiy ong shakllaridan biri. Fan tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi yangi bilimlar hosil qilishdan to ularni tadbiq qilishgacha bo‘lgan faoliyatni o‘z ichiga oladi. Kishi organizmi, atrof-muhit, bepoyon olam sirlari va rivojlanish mexanizmlarini o‘rganib, ulardan kishilik jamiyatining ravnaqi uchun foydalanish ilm-fanning bevosita maqsadidir.

Keng ma’noda fanning vazifasi voqelikni nazariy aks ettirishdir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida fan jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanib boradi.

Fan bilan san’at, din va axloq o‘rtasida muayyan munosabat mavjud. Hozirgi fan ulkan yutuqlarga erishgan sharoitda din fan natijalaridan foydalanishga harakat qiladi. Aksincha, fan ham diniy dunyoqarashlardan foydalanmay iloji yo‘q. San’at va axloq ham fanga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Fan bilan falsafa o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish murakkab munosabatga ega. Falsafa ozmi-ko‘pmi fan metodologiyasi vazifasini bajaradi, falsafa va fan yutuqlari birgalikda ilmiy dunyoqarashni ifodalaydi.

**FANSHUNOSLIK –** fanni vujudga kelishi va taraqqiyot qonuniyatlari, strukturasi va dinamikasi, uning boshqa ijtimoiy omillar va jamiyatning moddiy hamda ma’naviy hayot sohasi bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi yo‘nalish. Fanning ayrim unsurlari (fanlar klassifikatsiyasi va ilmiy ijod masalalari) qadimdan falsafa va xususiy fanlar tomonidan o‘rganildi. Aristotelning o‘z asarlari nomini «Fizika», «Metafizika», «Analitika», deb qo‘yishi fan klassifikatsiyasi sohasidagi dastlabki g‘oyalardandir. Al-Xorazmiy ilmiy ijod kashfiyotining vazifasini ilmdagi qiyinchilikni yengillashtirish, xatolarni to‘g‘irlab ketishdan iborat, deb bilgan. Forobiy va Ibn Sino fanlar klassifikatsiyasi to‘g‘risida qiziqarli fikrlar aytishgan. Beruniyning ilmiy tadqiqot metodlari, jumladan, tarixiy axborotlar haqidagi mulohazalari, Mahmud Koshg‘ariyning fan asoslarini mujassamlashtiruvchi «Devoni lug‘ati turk» asari katta ahamiyatga ega, Abdulloh al-Xorazmiy fanlar tasnifini bergan.

**FAN FALSAFASI –** fanni bilish faoliyati sifatida o‘rganuvchi falsafa fanining sohasi hisoblanadi. Fan falsafasining predmetini ilmiy bilishning umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari ( intilishlari) tashkil etadi.

Fan falsafasida ilmiy bilishga tarixiy rivojlanish davomida ilmiy bilimlarni yaratilishi va ijtimoiy – madaniy o‘zgarib boruvchi sharoitlarda o‘ziga xos faoliyat sifatida yondoshiladi.

Fan falsafasida ilmiy izlanish, «kashfiyot algoritmi», ilmiy bilimning dinamikasi tadqiqot faoliyatining uslublari kabi muammolar tadqiq etiladi. Fan

falsafasining boshqa fanlardan farqi – u inson intellekti yordamida haqiqatga erishish imkoniyatlarini izlashdir. Boshqa fanlarning maqsadi esa haqiqatni izlashdir.

**AGNOSTITSIZM -** (yun. agnostos: a – inkor, gnostos – bilish, bilishni inkor etish) – tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimning voqelikka muvofiq ekanini isbotlash mumkin emas, deb hisoblaydigan fal-y ta'limot. Antik skeptitsizm va o'rta a. lardagi nominalizm negizida paydo bo'lgan. XIX–XX a.lar ijtimoiy tafakkurida, ayniqsa, marksistik fal.da mazkur ta'limot sun'iy tarzda soddalashtirilib, unga to'liq bilishni inkor etuvchi ta'limot sifatida baho berilgan. Vaholanki, bu ta'limot vakillari obyektiv borliqni bilish mumkinligini butunlay rad etmaydi, bilim va tafakkurining cheklanganini ta'kidlaydi, xolos. Haqiqatan ham, dunyoni mukammal bilish mumkin emas, inson dunyoning siru sinoatini qanchalik chuqur o'rganmasin, uning tubiga yetib borolmaydi, bu olamning haddi hududi bo'lmagani kabi, u haqdagi bilimlar ham cheksizdir. Qad. yun. fal.sida skeptitsizm shaklida, paydo bo'lgan (Protagor, Pirron kabi faylasuflarning qarashlar asosida). A. keyinchalik ingliz donishmandi David Yum va nemis faylasufi Immanuel Kant va b. g'arb olimlari tomonidan rivojlantirilgan. Agnostiklarning fikricha, dunyoni yaxlit va bir butun holda bilib bo'lmaydi. Inson uning bir qisminigina bilishga qodir, xolos. Ular o'z fikrini oqibatning sababdan farq qilishi bilan asoslab berishga urinadi. Ular oqibat sababdan farq qiladi, sh.u. narsa hodisalarning mohiyatini anglash mumkin emas, deb hisoblaydi. Bu oqim namoyandalari obyektiv ravishda mavjud bo'lgan sabab va oqibat o'rtasidagi bog'liqlikni isbotlash mumkin emasligiga asoslanib, aposterior, ya'ni tajribadan oldingi bilim vositasida, sh-dek, mantiq yo'li bilan ham oqibat va sabab o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash mumkin emas, degan g'oyani ilgari suradi. D.Yumning fikriga ko'ra, tabiat mo'jizalar kitobini to'liq ochmaydi, bizga obyektlarning ayrim tashqi sifatlarini o'rganish imkonini beradi, xolos. XIX A.da A. g'oyasi turli yo'nalishlarda rivojlantirildi. Mas., I.Myullerning A.i (fiziologik idealizm), G.Gelmgolsning iyerogliflar A.i, vulgar materialistlar

(L.Byuxner, Y.Moleshott)ning A.i A.Puankarening konvensializmi, XX a.da esa P.Yushkevichning “prakseologik” A.i bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

**ATRIBUT -** (lot. bag‘ishlayman, xus-yat beraman) – narsa yoki hodisaning tub mohiyatini ifoda etadigan, eng muhim xarakterli xus-yati, belgisi. Mas., yaxshilik, ezgulik, adolat, erkinlik, haqiqat kabi t.lar yuksak ma’-yatning doimiy A.laridir. Fal. fanida A. atamasi dastlab Arastu ta’limotida ishlatilgan bo‘lib, azaliy haqiqatni, o‘tkinchi va tasodifiy holatlardan farq qilish uchun qo‘llangan.

**GNOSTITSIZM -** (yun. gnosis – bilish) – fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan insongina borliqdagi narsa-hodisalar va jarayonlarning mohiyatini bilishi mumkinligini e’tirof etuvchi fal-y ta’limot. G. tabiat, jamiyat haqidagi bilimlar, t.lar, g‘oyalar borliqning in’ikosi ekanini, o‘z navbatida, ular borliqqa faol ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu ta’limot ijtimoiy borliq, inson va ular o‘rtasidagi munosabat larni o‘zgartirishga qaratilgan bu ta’sir insonning naz-y va amaliy faoliyati jarayonida namoyon bo‘lishini e’tirof etadi.

**GUMANIZM -** (lot. humanus – insoniy) – insonni ulug‘lovchi fal-y ta’limot, insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi barcha tuzumlar, davlatlar, jamiyatlar uchun asosiy faoliyat mezoni bo‘lishi lozimligini ifodalaydigan t. Aksariyat G‘arb mutaxassislari G.ning “antropotsentrizm” (inson borliq mohiyatining asosiga qo‘yilishi) g‘oyasiga tayanishini e’tirof etadi. O‘rta a.lardagi G. rivojini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: 1) ilk G. – XIV a.ning 30-90-yillari; 2) G.ning yuksalish davri – XIV a.ning birinchi yarmi; 3) bevosita gumanistik talqindagi neoplatonizmning tarkib topishi – XV a.ning ikkinchi yarmidan XVI a. boshlarigacha; 4) G. g‘oyalari mazmunidan chekinishlar va G. harakatining so‘nish davri – XVI a.ning ikkinchi yarmi. Ilk gumanistlar insonning hayotiy ehtiyojlariga e’tibor qaratib, uni borliq markaziga qo‘ygan. Bu davrda inson haqidagi ilmlarga, ayniqsa, she’riyat va axloq ilmiga qiziqish kuchaygan. Qad. yunon va Rim allomalari yaratgan meros jiddiy o‘rganilgan. Bu davr mutafakkirlari yerdagi moddiy hayot faqat inson uchun yaratilgan, uni ezgulik va adolatning tabiiy qonunlariga muvofiq ravishda tartibga solish ham insonning o‘ziga bog‘liqdir, degan g‘oyani ilgari surgan. XV a. ikkinchi yarmidan boshlab gumanistlar

neoplatonizm g‘oyalarini yangicha talqin etishga kirishgan. Neoplatonchilar insonning tangriga bo‘lgan munosabat ini talqin etishda ibtidoiy tasavvurlardan voz kechib, borliqni yaxlit tizim sifatida tushunib, tabiat va ilohiy mohiyatning o‘zaro ichki bog‘liqligiga e’tibor qaratgan. Ular o‘rta a.larga xos tarkidunyochilik kayfiyatidan yuz o‘girib, yorug‘ dunyo go‘zalligini ilohiylashtirgan. Jamiyat ijtimoiy -siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar ta’sirida inson shaxsi borliq asosiga qo‘yilib, uni ulug‘lashga yo‘naltirilgan qarashlar majmui sifatida talqin etila boshlandi. Shu ma’noda, G. t.si turli tarixiy davrlar va hududlarda tarqalgan ta’limotlar va dunyoqarash tizimlariga tatbiqan ham qo‘llanadi. O‘zbek tiliga keng ma’nodagi G. t.si “insonparvarlik” deb o‘girilgan. Keyinchalik fanga “Antik davr G.i”, “Sharq G.i” “Xristian G.i”, “Islom G.i” kabi t.lar kirib kelgan. G. bugungi kunda ma’-yat talablari va tamoyillarini amalga oshirish usuli va vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Murod Usmonov, Abduxoliq Tashanov

**DIALEKTIKA -** (yun. dialektike – suhbat, bahs-munozara qilish) – tabiat, jamiyat va tafakkur riv-shining eng umumiy qonuniyatlari to‘g‘risidagi ta’limot, fal-y yondashuv va ilmiy bilish usullaridan biri. Qadimda D. suhbat, bahs-munozara vositasida haqiqatni ochish yo‘li va usuli sifatida talqin qilingan. Keyinchalik fal-y tafakkur rivojlanib borishi bilan D.ning mazmuni ham boyib borgan. D. borliqdagi barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar mazmun-mohiyatini, ularning o‘zaro aloqasi, sabab-oqibat bog‘lanishi, harakati, o‘zgarishi, ta’sirlashuvi va riv-shi bilan bog‘laydigan ta’limot sifatida e’tirof etiladi. D. ta’limotiga ko‘ra, olamdagi barcha narsa va hodisalar, sh-dek, ular haqidagi t. va bilimlar doimo o‘zgarishda, riv-shda bo‘ladi. Tabiiy hodisalarni, ijtimoiy hayot va tafakkur jarayonlarini dialektik n.nazardan tahlil qilish ularning obyektiv aloqadorligini, zaruriy bog‘lanishlarini, o‘zgarish va riv-sh qonuniyatlarini ochib berish, istiqbolni aniqlash, taraqqiyotga erishishning samarali yo‘llari va vositalarini ishga solish imkonini yaratadi.

**DUALIZM** - (lot. duo — ikki yoqlama) — moddiy va ma’naviy asoslarni teng huquqli deb hisoblaydigan ta’limot. Fal. tarixida D.ning eng yirik vakillaridan biri fransuz faylasufi R.Dekart edi. U ikki asos: moddiylik va ma’n-ylikning yonma-yon ravishda mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, cheksiz va

abadiy bo‘lgan tabiat inson tafakkuriga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘ladi va rivojlanadi. Nemis faylasufi I.Kant ham dualist bo‘lib, uning fikricha, ideal narsa bilan (inson ongi b-n) bir qatorda hodisalarning obyektiv asosi bo‘lgan “narsa o‘zida” ham mavjuddir, lekin “narsa o‘zida”ni bilib bo‘lmaydi. Hozirgi davrda D. psixofizik parallelizm naz-yasi uchun manba sifatida xizmat qilmoqda. SH-dek, D. gnostitsizmning (bilish naz-yasi) asosiy yo‘nalishi bo‘lib, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o‘rtasida mustahkam chegara mavjud, deb ta’kidlaydi. Xullas, D. qadimiy g‘oya va qarashlar majmui bo‘lib, moddiy va ma’naviy asoslardan birining mutlaqlashtirilishiga qarshi ta’limot hisoblanadi.

**IDEALIZM** (yun. idea – g‘oya, fikr) – insoniyat tafakkur tarixidagi eng qad. o‘ziga xos fal-y yo‘nalishlardan biri. U ong va ruhni borliqning yagona asosi deb e’tirof etadi. I. olam ong, “mutlaq g‘oya”, “dunyoviy ruh” ifodasi, go‘yoki ko‘lankasi, deb hisoblaydi. I.ga ko‘ra, moddiy olam emas, bizning ongimiz real tarzda mavjuddir. Moddiy borliq, narsa-hodisalar dunyosi, tabiat esa ong, sezgi, his-tuyg‘u, tasavvur va t.lar hosilasidir. I., o‘z mohiyatiga ko‘ra, ikki – subyektiv va obyektiv I.ga bo‘linadi. Subyektiv I. borliqning asosi sifatida alohida individium, subyektning ongi va sezgisini tan oladi. Uning asoschisi ingliz faylasufi va yepiskopi J.Berklidir. Olimning fikricha, narsa-hodisalarning barcha sifat va xossalari inson sezgilarining namoyon bo‘lishi, xolos. YA’ni, moddiy jismlar bizning ongimizdan tashqarida obyektiv tarzda mavjud emas, odamlarning sezgi, his-tuyg‘ularigina real mavjuddir. Bunday qarash pirovard natijada solipsizm deb ataladigan holat – voqelikni aks ettiradigan subyektdan o‘zga barcha real narsa-hodisalar, inson va insoniyat rad etiladigan darajaga olib keladi.

Obyektiv I. esa borliqning asosi sifatida individual ong, sezgini emas, aksincha, mutlaqlashtirilgan, ilohiylashtirilgan ongni, “universal iroda”, “mutlaq g‘oya” kabi kategoriyalarni qabul qiladi. Obyektiv I. tarafdorlarining fikricha, har qanday insonda mutlaq g‘oya mustaqil ravishda mavjud bo‘ladi.

I. qad. zamonlarda vujudga kelgan. Aflotun qad. yunon obyektiv I.ining yorqin namoyandasidir. Uning fal-y qarashlarida doimo o‘zgarishda bo‘lgan moddiy dunyoga o‘zgarmas, abadiy, har qanday harakatdan xoli bo‘lgan “haqiqiy

borliq”, ruhiy mohiyatlar olami, g‘oyalar saltanati qarshi qo‘yiladi. Aflotun g‘oyalar olamini barcha narsalarning ibtidosi, moddiy olamni esa, uning mahsuli deb biladi. Uningcha, real jismlar g‘oyalar olamining aksidir. Mas., daraxt, ot, suv u dunyodagi mavjud daraxt, ot, suv to‘g‘risidagi g‘oyalarning nishonasi, hosilasi, xolos. Aflotun qad. yunon fal-y tafakkurida shakllangan sensualistik ta’limotlarni rad etadi. Uningcha, sezgilar haqiqiy bilim manbai bo‘la olmaydi, chunki ular narsa-hodisalar olamidan begonalashmagan. Haqiqiy bilim manbai insonning o‘lmas ruhiy xotiralaridir. Ular g‘oyalar olamini idrok etish oqibatida yuzaga keladi. Aflotun fal.sida dialektika bahs-munozara jarayonida ishlatiladigan t.larni qiyoslash va tahlil qilish san’ati sifatida talqin etiladi.

I. fal-y tafakkur tarixida materializm bilan muntazam bahsga kirishib, turli dunyoqarashlar rivojiga asos bo‘lib keldi. I. fal-y tafakkur tarixida platonizm, pifagorizm, realizm, kabbilizm, spiritualizm, tomizm va neotomizm, kantchilik, tasavvuf, empiriomonizm, ekzistensializm, irratsionalizm kabi ta’limotlarda o‘z ifodasini topdi.

Dunyoning kattagina hududida marksizm fal.si hukmron bo‘lgan XX a.da idealistik ta’limotlar va ularning vakillari erishgan ilmiy yutuqlar ko‘p hollarda kamsitilib, soxtalashtirildi, I. reaksion oqim sifatida baholandi va uni to‘laqonli o‘rganish, targ‘ib etish taqiqlandi. Buning aksi o‘laroq, materializm ilm-fanning charog‘on yo‘li, nurli g‘oyalar saltanati sifatida talqin qilinar edi. Amalda esa buning aksini ko‘ramiz. Yunon faylasufi Aflotun bahs-munozara mad-tida dalillash – argumentatsiya sohasida inson dahosi qo‘l urmagan yangi jabhalarni kashf etdi; nemis faylasufi Gegel inson tafakkurining nechog‘liq murakkab mohiyatga ega ekanini, dialektik tarzda fikr yuritish muhimligini tahlil qilib berdi; venalik psixiatr Z.Freyd “libido” ta’limoti (jinsiy moyillik ta’limoti) asosida ongdagi ongosti qatlamida sodir bo‘ladigan jarayonlarni teran tahlil etishga muvaffaq bo‘ldi.

**INTUITSIYA** - (lot. intuitus – sinchiklab qarayman) – haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab olish, savqi tabiiy yo‘li bilan bilish qobiliyatini anglatadigan t. Fal. tarixida I. t.si turlicha ifodalangan. Qad. fal-iy qarashlarda I. bilishning alohida shakli deb hisoblangan. Mas., Aflotun ta’limotiga ko‘ra,

bilishning obyekti – g‘oyalar dunyosidir, moddiy dunyo, narsalar to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz esa hissiy bilish orqali hosil bo‘ladi. Hissiy bilish, Aflotunning fikricha, haqiqat emas, chunki u orqali kishilar g‘oyani emas, balki moddiy narsalarni sezadi, ular to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘ladi. Haqiqatni bilish, uningcha, faqat sof tafakkur orqali amalga oshadi. Qad. Sharq fal.sida I. payg‘ambarlarga, avliyo zotlarga xos bo‘lgan maxsus bilish usuli sifatida talqin etilgan. Dekart ta’limotida bilishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li ratsionalizmga asoslangan deduktiv usuldir. U din va sxolastik fal. o‘rniga kishi aqlini, ilmiy bilimni yuqori qo‘yadi. Dekartning fikricha, isbotning deduktiv shakli aksiomalarga asoslanadi, aksiomalar esa, hech qanday isbotsiz sof intuitiv tarzda anglanadi. Spinoza I.ni bilishning “uchinchi xili”, narsalarning mohiyatini qamrab oluvchi eng ishonchli bilish deb hisoblagan. XX a. fal.sining ayrim vakillari (Bergson, Freyd) I.ni butun ijodiy faoliyatni belgilovchi yashirin, qorong‘u, ongsiz, boshlang‘ich ijod, deb qaraydi. Bu bilan ular I.ni intellektga qarama-qarshi qo‘yib, narsalar mohiyatiga kirib borish aslo mumkin emas, degan g‘oyani ilgari suradi. Hozirgi zamon fal.sining ayrim vakillari I. ni bevosita bilim, vositalangan bilim bilan dialektik tarzda bog‘langan jonli mushohada sifatida talqin etadi va I.ni aqldan ustun turadigan, mistik bilish qobiliyati, degan qarashni rad qiladi. I. haqiqatni payqashning oddiy yo‘llaridan prinsipial og‘ish emas, u mazkur oddiy yo‘llarning yuz berishining mantiqiy shakli va amaliyoti bilan bog‘liq qonuniy shaklidir. Haqiqatni go‘yoki “to‘satdan” payqash zamirida to‘plangan tajriba, ilgari hosil qilingan bilim yotadi. I.ning psixologik mexanizmi kam o‘rganilgan, lekin mavjud tajribaviy ma’lumotlar uning zamirida individning atrofidagi muhit bilan informatsion, signalli o‘zaro ta’sir jarayonida bevosita anglangan natija bilan bir qatorda yordamchi (anglanmagan) natijani aks ettirish qobiliyati bor, deb hisoblashga imkon beradi. Biroq, muayyan sharoitda amaliyot natijasining mazkur (ilgari anglanmagan) qismini individ tomonidan anglash imkoniyati tug‘iladi va bunday intuitiv bilish natijalari vaqti kelib amaliyotda tekshirib ko‘riladi hamda mantiqiy ravishda isbot qilinadi.

**HAQIQAT** - (arab. chin, to‘g‘ri) — inson ongida voqelikning to‘g‘ri, haqqoniy aks etishi, olam, voqea-hodisa, tafakkur mahsuli, munosabatlar va b.ni aslida qanday bo‘lsa shunday tushunishni ifodalaydigan t. Gollandiyalik faylasuf Spinoza inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishini H. deb atagan. H.ning quyidagi turlari bir-biridan farqlanadi: 1) obyektiv H. (olamdagi narsa va hodisalar mohiyatining inson ongi va istaklariga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjudligi); 2) nisbiy H. (inson bilim doirasining cheklangani); 3) konkret H. (predmet yoki hodisaning hamisha aniq joy va sharoitda mavjudligining inson ongida aks etishi); 4) mutlaq H. (predmet yoki hodisa mohiyatining inson ongida to‘liq aks etishi). Mutlaq H. nisbiy H.lar majmuasidan tashkil topadi. H. mezoni ijtimoiy amaliyotdir. H. ma’-yatda eng ko‘p e’tibor qaratiladigan t.lardan biri bo‘lib, inson ma’-yatining shakllanishi, riv-shida katta ahamiyat kasb etadi. H.ni chuqur anglash inson ruhiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatib, ma’naviy xus-yatlarning jonlanishiga turtki berish bilan o‘z natijalarini namoyon etadi. H.ni anglash orqali inson tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar yoki tafakkur mahsuli uning ma’-yati darajasini ham belgilab beradi va shunga ko‘ra, inson ma’-yatini yuksaltirish omillaridan biri hisoblanadi.

# XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimiz o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan ildam odimlamoqda. Barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilib, huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun mustahkam asoslar yaratilayapti. Jumladan, ta’lim tizimi rivojiga har qachongidanda katta e’tibor qaratilgan. O‘quv tarbiya jarayoniga eng ilg‘or zamonaviy uslublar tadbiq etilmoqda. Ta’lim tizimi yaratilgan huquqiy asoslar, dasturlar asosida rivoj topdi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talabiga ko‘ra akademik litseylardagi o‘quvchilar uch yil o‘qish jarayonida oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun aniq maqsadlarga yunaltirilgan fanlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, dasturda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganib, ularni o‘quv jarayoniga olib kirish zarurligiga ham e’tibor qaratilgan. Shu bois, keyingi yillar ichida yaratilgan fan-falsafaga bag‘ishlangan adabiyotlar soni ko‘payib bormoqda.

Fan va falsafa uning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni haqida fikr yuritar ekanmiz, falsafaning inson hayoti, qolaversa, fanlar o‘rtasidagi o‘rni beqiyosligini ko‘rishimiz mumkin. U ilmiy yutuqlar va axloqiy qadriyatlarga tayanib, insonning kamoloti, qolaversa, uni tabiatga bo‘lgan umumiy munosabatini o‘rganadi. Fan va falsafaning vazifasi muayyan dunyoqarashni shakllantirish orqali kishilarning ongiga va shu yo‘l bilan ularning amaliy faoliyatiga ta’sir etishidadir. Bilimlar umumlashgan falsafiy dunyoqarashni o‘zgartiradi, unga muayyan maqsad va yo‘nalish beradi, uning olamni yaxlit voqelik sifatida o‘rganishga qaratilgan faoliyatini chuqurlashtiradi va kengaytiradi.

Olimlarimiz falsafani umuminsoniy qadriyat sifatida tahlil etib, Sharq va G‘arb falsafasini o‘rganishga, mustaqillikning nazariy muammolarini yoritishga alohida e’tibor bermoqdalar. Shuni ham aytish joizki, ijtimoiy va tabiiy fanlar sohasida qilinayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ularning natijalari hozirgi zamon talablariga javob bermoqda desak, adashmagan bo‘lamiz. Fanga umuminsoniy qadriyatlar sifatida qarash, bu borada tarixiy meros va boshqa mamlakatlarning

tajribasidan foydalanish, ilmiy izlanishlarni O‘zbekiston oldida turgan keng qamrovli vazifalar bilan bog‘lash jamiyatshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardir.

Odamzotni tabiat haqidagi dastlabki qarashlari falsafa va fanning metodologik xulosalarida o‘z ifodasini topdi. Turli sohalarini o‘rganuvchi fanlar borliq haqida muayyan bilimlar hosil bo‘lishiga olib kelsa ham, ularning har biri alohida holda dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli ham jamiyat taraqqiyoti davomida alohida fanlar qanchalik tez va keng rivojlanmasin, falsafiy dunyoqarashga bo‘lgan ehtiyoj susaymaydi, balki tobora chuqurlashib, ortib boraveradi.

Fan va falsafiy tafakkur inson axloqiy saloxiyatining eng oliy cho‘qqisi, ruhiy ehtiyojlar darajasining ko‘rsatkichi. Falsafiy tafakkur barcha fanlar sohasidagi bilimlarni, amaliyot saboqlarini o‘rganish, umumlashtirish va shu asosda olam haqida bir butun, yaxlit tasavvur hosil qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Bu vazifani falsafadan boshqa biror fan bajara olmaydi. Shu sababli falsafaning inson bilimlari taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Falsafa barcha fanlarni bir-biri bilan bog‘lab turuvchi bo‘g‘in, tafakkur haqidagi fikr, yetuk axloqqa tayangan tafakkurning omilidir.

Falsafa insonning mohiyatini, borliqqa munosabatini o‘rganish, boshqa fanlar taraqqiyoti uchun metodologik yo‘l ko‘rsatibgina qolmay, balki inson tafakkurining ichki imkoniyatlari va qirralarini tez davom etishini ta’minlaydi. Fan esa inson dunyoqarashini shakllantirishda minglab yillar davomida yuzaga kelgan ilmiy va nazariy ta’limotlardan keng foydalanadi. Jamiyat tarixini o‘rganish, istiqbolini belgilash ham falsafiy dunyoqarashning mohiyatiga bog‘liqdir.

Falsafa odamzot tafakkur solohiyatining eng umumiy tushunchalar, bilimlar, xulosalar va umuman, dunyoqarash shaklida namoyon bo‘lishidir.

Insonning o‘zligini anglashi, o‘z mohiyatini ruhiy jihatdan tahlil etishi, barcha maqsadlari va ular bilan bog‘liq faoliyatini tarix saboqlari, zamon talablari va imkoniyatlari, istiqbol muammolari bilan uzviy bog‘liq holda hamda yangi ehtiyojlar, ilmiy xulosa va qadriyatlarga tayanib yo‘naltirishi, boshqa odamlar

bilan adolatli munosabatda bo‘la bilishidir. Shu sababli inson o‘zligini va o‘zgalarni anglashi hamda shu asosda borliqqa bo‘lgan munosabatini belgilashi ham falsafiy muammolar tizimiga kiradi va uning eng murakkab sohasini tashkil etadi.

Falsafa turli davrlarda dunyoning turli mamlakatlardan to‘plangan bilimlarni, tajribalarning yakunlarini umumlashtiradi, yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Shu asosda fanlarning yaqinlashuvi, muammolarning mushtaraklashuvi insoniyat ilmiy va amaliy faoliyatining kengayishi uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi. Insonning amaliy faoliyati, ilm-fanning rivojlanishi hech qachon falsafiy tafakkurga bo‘lgan ehtiyojni zaiflashtirmagan, aksincha, yana ham kuchaytirdi. Inson bu tafakkur orqali o‘z mohiyati, jamiyat, tabiat, tafakkur haqida tizimli bilimlar ko‘nikmasini hosil qilish bilan cheklanmay, ular asosida ilmiy tafakkur rivoji, amaliy faoliyati uchun muhim bo‘lgan umumiy xulosalar chiqarishga ham intiladi. Oqibatda fan uchun yangi kashfiyotlar dunyo yuzini ko‘radi. Bu esa fanning takrorlanmas yutug‘idir. Sir emaski, hozirgi davrda falsafa faniga bo‘lgan qarash keskin o‘zgarib bormoqda. Yosh avlodning, tafakkurini shakllantirish, ularning dunyoqarashini tarbiyalash ularning o‘zi va dunyoga munosabatini takomillashtirib borish bu kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Chunki yosh avlod ertangi kunimizning davomchisidir.

Hozirgi davr uchun muhim bir vazifa hisoblangan komil insonni tarbiyalashda fan va falsafiy fanlarning o‘rni juda katta. Asrlar davomida komil inson masalasi dolzarb bo‘lib kelgan, chunki uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. Bu yo‘lda tabiiy va ijtimoiy fanlar kabi falsafa fani ham o‘z xissasini qo‘shib boraveradi. Vaxolanki, yangi davr talabi va istagi ham shuni taqozo etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. RAHBARIY ADABIYOTLAR:


1. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-23 jildlar. -T.:“O‘zbekiston”, 1996-2015.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:“Ma’naviyat”, 2008.

3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2010.

4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: “O‘zbekiston”, 2011.

5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.:”O‘zbekiston”, 2015

6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz — jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. - T.: “O‘zbekiston”, 2016.

7. Karimov I.A. Ozodlik havosidan to‘yib nafas olgan xalq o‘z yo‘lidan hech qachon qaytmaydi. –T.:”O‘zbekiston”, 2016.

8. Karimov I.A. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. –T.:”O‘zbekiston”, 2016.

9. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi. 2016 yil 9 sentabr. 179 – son.

10.SH.Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2016 yil 8 dekabr. 243-son.

11.SH.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston. – 2017.

## 2. Normativ-huquqiy hujjatlar:


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.:“O‘zbekiston”, 2014.

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil 29 avgust. // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “O‘zbekiston”, 1997. –B. 20-29.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “O‘zbekiston”, 1997. –B. 30-52.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni. 1997 yil 6 oktabr. / «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.:«Sharq», 1998.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi. 2006 yil 26 avgust.

6. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha o‘quv dasturini tayyorlash va ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-1533-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.

11.SH.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

### 3. Asosiy adabiyotlar:


1. Falsafa asoslari. Q .Nazarov tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005
2. Falsafa M.Axmedova tahriri ostida. -T.: O‘FMJ, 2006.
3. Qahharova Sh. Falsafaga kirish. -T.: Universitet, 2005.
4. Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005
5. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
6. SHermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: Universitet, 2005.
7. SHermuxamedova N.A. Gnoseologiya - bilish falsafasi.-T.: “Noshir”, 2011.
8. G‘arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.


### 4. Qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida.-T.: Sharq, 2004
2. Falsafa ensiklopedik lug‘at. Nazarov Q.tahriri ostida.-T.: Sharq, 2011
3. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari.-T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
5. Karimov B.R. Dialektika obyektivnogo i subyektivnogo v metode vosxojdeniya ot abstraktnogo k konkretnomu. -T.: 1998.
6. Shpengler O. Zakat Yevropi. Rostov na-Donu. 1998.
7. Asmus V. Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
8. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiyapod redaksiyey O. Fayzullayeva -T.: Sharq, 2000.
9. Noveyshiy filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, -M.: 2001.
10. Gurevich P.S.Osnovi filosofii -M.: 2002.

11. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan.-T.: “Minxoj”, 2003.

12. Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O‘zbekiston, 2004.

13. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006

14. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O‘FMJ, 2006.

15. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Universitet, 2007

16. Madayeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007

17. Haqiqat manzaralari. S.Jo‘rayeva tarjimasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007

18. Qurbonova L. Ijodiy tafakkurning falsafiy metodologik tahlili. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Falsafa va huquq, 2007

19. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. –T.: Universitet, 2008

20. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi.2008

21. Yunusov A. Huquq ma’naviyati. –T.: Adolat, 2008.

22. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. –T.: Fan, 2009

23. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.

24. Qurbonova L. Borliq falsafasi. –Andijon: ADU, 2009

25. Qurbonova L. Inson falsafasi. –Andijon: ADU, 2009

26. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. –T.:Tafakkur, 2009.

27. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Universitet, 2010

28. Bozarov D. Sinergetik paradigma. –T.: Tafakkur, 2010

29. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o‘rni- T.:”Star - Poligraf”, 2010

30. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi –T.:Universitet, 2011

31. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011

## 5. Internet saytlar

1. www. Lex.uz
2. www. Ziyonet.uz
3. www. Edu.uz
4. www. Ma’naviyat.uz
5. www.faylasuf.uz
6. www. Bilim.uz
7. www. Fikr.uz
8. www. Uza.uz
9. www. Senat.uz